

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**“Himoyaga ruxsat etildi”  
Magistratura bo‘limi boshlig‘i  
dotsent G‘.A.Doliyev  
2019-yil**

**5A120102 - Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti  
Yo‘ldosheva Dildora Sadriddin qizining**

**“ALPOMISH” DOSTONINING LINGVOKULTUROLOGIK  
XUSUSIYATLARI”**

**mavzusidagi**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYA  
ISHI**

O‘zbek tili kafedra mudiri:

N. Uluqov, f.f.d., professor

MDI rahbari:

H. Usmonova, f.f.d., professor

**Namangan – 2019**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I bob. “ALPOMISH” DOSTONINING O‘ZBEK MADANIYATI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI</b>	
1. 1. “Alpomish” dostoni – o‘zbek xalqining durdonasi.....	10
1. 2. Eposda o‘zbek xalqi an`ana va milliy mentalitetining aks etishi.....	18
1. 3. Milliy qadriyatlarning doston syujetida tutgan o‘rni.....	22
I bob bo`yicha xulosa.....	27
<b>II bob. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	
2.1. “Alpomish” dostonidagi etnografizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	28
2.2. Dostondagi muomala nutqining lingvokulturologik xususiyatlari.....	39
2.3. “Alpomish” dostonidagi qahramonlar nomlari (antroponimlari)da milliylik ifodasi.....	46
II bob bo`yicha xulosa.....	54
<b>III bob . “ALPOMISH” DOSTONIDAGI TASVIRIY VOSITALARNING LISONIY VA VA MADANIY XUSUSIYATLARI</b>	
3.1. “Alpomish” dostonidagi o`xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	55
3.2. Dostondagi metaforalar va ularning leksik-semantik xususiyatlari.....	64
3.3.“Alpomish” dostonidagi mubolag`a va sifatlashlarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	68
III bob bo`yicha xulosa.....	76
UMUMIY XULOSALAR.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar.....	79

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.**

Keyingi yillarda xalq qadriyatiga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga keskin o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablari, akademik litseylarda og'zaki ijodimizni o'rganishga alohida e'tiborning oshayotgani natijasida yoshlarimiz o'tmish madaniyatimiz xazinasidan bahramand bo'lmoqdalar. Bu tadbirlarning hammasi barkamol avlod tarbiyasiga o'zining munosib ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" kitoblarida xalqimiz og'zaki ijodining asrlar davomida xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lib kelganini ta'kidlab "...xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti desak to'g'ri bo'ladi",- deb alohida ta'kidlaganlar<sup>1</sup>. Haqiqatdan ham bu doston ilmga ma'lum bo'lgandan buyon olimlar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. "Alpomish" dostoni xususida qariyb bir asrdan buyon turli darajada fikr-mulohazalar bildirilib kelinmoqda. Ularda dostonning har xil jihatlari atroflicha tadqiqqa tortilgan. Jahon ma'naviyati va madaniyatiga munosib hissa qo'shgan, o'tmishi yuqori saviyada o'tgan xalqlar og'zaki ijodiga butun dunyo folklorshunos olimlari muttasil o'rganayotgan asarlar bor. Forsaytlar haqidagi sagalar, nardlar, manas shular jumlasidandir. "Alpomish" ham ana shunday asarlar qatorida munosib o'ringa ega. Shuning uchun ham folklorshunoslikda "Alpomish"ning xalq qahramonlik eposi sifatidagi tarixiy ahamiyatini atroflicha o'rganganlar. Hamid Olimjon<sup>2</sup>, Hodi Zaripov, M.Saidov<sup>3</sup>, To'ra Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo'rayev kabi o'zbek olimlari mazkur asarni ijtimoiy hayotning badiiy ijoddagi ifodasi yo'nalishida tadqiq

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

<sup>2</sup> Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. – Toshkent: Fan, 1981

<sup>3</sup> Saidov M. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. – Toshkent: Fan, 1969.

etganlar<sup>4</sup>. Doston haqidagi yangi fikr B.Sarimsoqovning “Alpomish” eposi haqida uch etyud” hamda “Alpomish” klassik epos namunasi” maqolalarida qayd etildi<sup>5</sup>. Xususan, bu maqolada, avvalo, turkiy xalqlar, jumladan, o`zbek xalqining mustaqil xalq sifatidagi o`ziga xos belgilari birinchi navbatda qahramonlik eposida aks etishi qonuniyati kashf etildi. Natijada olimlar tomonidan doston o`rganilar ekan, “Alpomish” o`zbek xalqi tarixining badiiy ifodasi san`atda aks etgan va og`zaki ijodda muhrlangan hujjat ekani to`liq isbotlandi. Badiiy san`atda shunday asarlar borki, ularni o`rganish ijod samaralarini tahlil qilish bir necha avlodlar sa`y-harakatlari bilan ham o`z nihoyasiga yetmaydi. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. Millatning o`ziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgitil bo`lsa, uni unutgan odamda millat tuyg`usi bo`lmaydi. “Alpomish” dostoni o`zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadair. Chunki asarda o`zbekka xos o`ylash tarzi, ta`sirlanish yo`sini ifoda topgan. Til butun xalqning ko`p asrlar davomida to`plagan tunganmas xazinasini. Tildagi har bir so`z va so`z o`zining milliyligi va serqatlamligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. “Alpomish” dostonidagi har bir ibora, maqol, matalda yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, ma`naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, og`zaki adabiy tilimiz tarixidan dalolat beradi. Dostonning bu serjilo til o`z navbatida xalq tili ta`minlaganida ko`rinadi. Xalq tili esa tunganmas boyliklar bulog`i, misli bir xazina. “Alpomish” dostonida qadimda ota- bobolarimiz amal qilgan urf-odatlar, udumlar, go`zal til, jozibali nutq, betakror tasviriy ifodalar bilan yetkazib berilganki, bugungi yoshlarimizga uni singdirish, ularni bu udumlar bilan tanishtirish o`zlikni anglashga undash bilan birga, xalq tili qudratini ham his etishga xizmat qiladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlarini, o`ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi bilamiz.

**Ishning o`rganilganlik darajasi.** Xalq ijodini o`rganish- xalqning tarixi,

---

<sup>4</sup>Qarang: Hamid Olimjon. Asarlar, 10-jildlik, ; H.Zaripov.O`zbek xalq qahramonlik eposi. M.1947(Bu haqdagi ma'lumot [www.tuklib.uz](http://www.tuklib.uz) saytidan olindi); T.Mirzayev. "Alpomish" dostonining o`zbek variantlari. Toshkent, 1989.

<sup>5</sup> Sarimsoqov B. “Alpomish” klassik epos namunasi. // O`zbek tili va adabiyoti jurnali. 4/ 1999. 3-9-betlar

urf-odati, an`analari, o`y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o`zini anglashi, o`zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi, o`ziga xos urf-odat va an`analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi.

Bu borada, tabiiyki, ma`naviy meros, madaniy boyliklar, ko`hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo`lib xizmat qiladi”<sup>6</sup>. Ana shunday yuksak ma`naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og`zaki ijodini tom ma`noda anglash uchun esa uning g`oyaviy-badiiy va janr xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslarini atroflicha tadqiq etish lozim bo`ladi. Xalq ijodini o`rganishda bunday muayyan yondashuv uning jonli og`zaki ijro sharoitida o`ziga xos ravishda yashash, tarqalish xususiyatlarini, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog`liq ayrim hodisalarning aks etish darajasi, aniq asarlar syujet tizimida tutgan o`rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etishni talab qiladi.

“Alpomish”dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o`rni, uning epik timsollar tizimi tadrijidagi mavqeyi, jahon mifologik tafakkur tajribasining “Alpomish” dostoniga ko`rsatgan ta`siri va undan o`rganilgan jihatlar, doston syujetining yaratilishiga sabab bo`lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi va boshqalar tekshirilgan. Bevosita doston badiiyatini o`rganishga qaratilgan ishlar sirasiga M.Saidovning “O`zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari” (T.,1969), I.Yormatovning “O`zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida)” (T.,1993), yana shu muallifning “O`zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati” (T., 1994), Q.Yo`ldoshevning “Alpomish” talqinlari (T., 2002) kabi ishlarni kiritish mumkin. Ammo dostonni o`qimishliligini ta`minlagan, xalqimiz qalbidan

---

<sup>6</sup> Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat — yengilmas kuch. —Toshkent: Ma`naviyat, 2008. — 30-bet.

chuqur o`rin olgan jihati uning milliy ruhiyatimiz bilan chambarchas bog`liqligidadir. Holbuki, “Alpomish” millat uchun faqat o`tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U- barcha badiiy buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor. Shuning uchun asarda milliy o`zlik masalasi, qahramonlar ruhiyatida milliylik masalalarini tekshirish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo`lmas masalalaridan biridir.

**Tadqiqotning maqsadi.** “Alpomish” dostonidagi lingvokulturtemalarning milliy madaniyatimizni aks ettiruvchi birlik sifatida tatbiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Lingvokulturologiya insonni va uning tilini madaniyat tarkibida o`rganadi. Fan quyidagi muammolarga diqqatini qaratadi: inson olamni qanday qabul qiladi, madaniyatni ko`chim va timsollarning o`rin, tilda asrlar davomida saqlanib turgan iboralarning madaniy belgilarni ifodalashdagi roli, ularning inson uchun ahamiyati. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomen sifatida tadqiq etadi. Bu esa olamni milliy til oynasi ortidan ko`rish demakdir. Ushbu jarayonda til alohida milliy ichki dunyosi ifodasi sifatida ko`zga tashlanadi. Tilshunoslik butun borlig`i bilan madaniy-tarixiy mundarijaga tayanadi yoki tadqiqot predmeti sifatida madaniyatning mahsuli, asosi va shart-sharoiti – muhiti hisoblangan tilni tushunadi. Tilshunoslik bo`limlari ichida “madaniy tashuvchi” sifatida eng faollari til tarixi bilan bog`liq sotsial dialektologiya, etnolingvistika, uslubiyat, leksikologiya, frazeologiya, semantika, tarjima va boshqa bo`limlardir.

Milliylik – tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o`zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg`usi bor inson sanaladi. Milliy ruh yaqqol ask etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, o`ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiligi mansub ekanligi o`z-o`zidan anglashilib turadi. Milliy iftixorimiz sanalgan “Alpomish” dostonining poetikasini o`rganishda uning ko`p qatlamli ekanligiga, doston matnigagina tayangan va undagina kelib chiqqan holda asardagi millat ruhiyati, turmush yo`sinini badiiy ifodasidagi o`ziga xos jihatlarni

o`rganish, dostonning yuksak badiiyati, ilgari surilgan g`oyaviyligi bilan ahamiyatli ekanligi ko`rsatish maqsad etib belgilandi. Ayniqsa, dostondagi qahramonlarning o`ta milliyligi, inson orzu-umidlari, qalb manzaralari, yengilmas matonatini qahramonlar obrazlari orqali ochib berish ham ana shu maqsadlarning asosini tashkil etadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda vazifalar belgilandi.

– “Alpomish” dostoni- o`zbek xalqining eng milliy asari. Turkiy urf-odatlar tarzi, milliy ruh dostonning har satriga singib ketganligini doston syujeti asosida o`rganish;

– “Alpomish” dostonidagi lisoniy birliklarni lingvokulturogik hijatdan tadbiq qilish;

– “Alpomish” dostonidagi metaforalar, frazeologizmlar, etnografizmlarni lingvokulturologik tahlil asosida o`rganish;

– dostondagi maqol va matal, marosimlarning milliylikni aks ettiruvchi omil sifatida o`rganish;

– “Alpomish” dostoni o`qitish, tarbiya masalasi ham bizga beqiyos ibrat namunasidir. yetti yoshida ulg`aygan bosh qahramonlar - Hakimbek bilan Oybachin endi har biri o`ziga xos mustaqil hayotga qadam qo`yadilar. Boybo`ri “Endi o`g`lim savodi chiqib mulla bo`ldi, o`g`limga endi shohlik, sipohilik ilmimi o`rgatayin” deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo`riga taassub qilib, Oybachin qizini maktabdan chiqarib, “chorvadorlik ilmimi o`rgatayin” dedi”. Bu holat bugungi kunda yosh avlodni o`qitish va hunar o`rgatish masalasini bilan bog`liq ekanligini ko`rsatish;

– dostondagi qahramonlarning antroponimi (shaxs otlari)ning turkiy asosga ega ekanligi, milliy o`ziga xoslik ismlar zamiriga ham singib ketganligiga e`tibor qaratildi;

– milliylikning ichki holat ekanligi, millatning vakili o`zining qaysi millatga mansubligini bilsa, milliylikning ichki holat ekanligi, millatning

vakili o`zining qaysi millatga mansubligini bilsa, va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg`usi shakllangan ekanligi doston personajlari o`y-xayolari, kechmishlari orqali talqin etildi.

“Alpomish” dostoni o`zbekning milliy ruhiyatini ilg`ash va aks ettirish jihatidan o`xshashi yo`q estetik hodisadirki, asarning badiiy qatlamlariga chuqurroq kirib borish millat ruhiy dunyosini teranroq anglash, uning bugungi o`zbek ma`naviyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin bo`lgan jihatlarini tayin etish ikoniyatini beradi.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “Alpomish” dostonidagi lingvokulturologik birliklar asos qilib olindi.

**Tadqiqot predmetini** “Alpomish” dostonidagi lingvokulturologik birliklarning lisoniy, leksik – semantik, etnografik va uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tavsifiy tahlil, etnografik tahlil, paremiologik tahlil, etimologik tahlil, frazeologik tahlil, lisoniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Magistrlik dissertatsiya ishimizda o`zbek xalq milliy dostoni “Alpomish” dostonining lingvokulturologik jihatdan tadqiq etildi: “Alpomish” dostonidagi marosimlar, urf-odatlar, maqol-matallar, iboralar, o`xshatish, mubolag`a va antroponimlar kabi birliklarning milliylikni aks ettirishi omil ekanligi o`rganildi. “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyati bugungi kun nuqtai nazaridan tekshirganimiz va bu boradagi xulosalarimiz ishning yangiligini belgilaydi. Yana shuni ko`rsatib o`tish o`rinliki, mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgach milliy-ma`naviy masalalarni targ`ib etish, xalqimiz tomonidan yaratilgan ma`naviy, milliy qadriyatlarni asrab -avaylash, o`sib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashga e`tibor qaratilmoqda. Shunda kelib chiqib dissertatsiya ishidagi lingvokulturologik tadqiqi bu boradagi ishlarning davomidir. Shuning bilan birga adabiyotshunoslik va tilshunoslik ilmida bugungi kunda adabiy asarni tahlil qilishning yangicha tamoyillari, yangicha badiiy tafakkur nuqtayi



nazaridan qarashlar asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati.** Magistrlik dissertatsiya ishidan chiqarilgan ilmiy xulosa va qarashlardan xalq og`zaki poetik ijodi bo`yicha qilinadigan tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Umumiy o`rta ta`lim tizimida adabiyot fanida “Alpomish”dostoni, umuman maktab adabiy ta`limidagi xalq dostonlarini o`qitishda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari folklorshunoslikka doir mavzularni o`rganishda amalga oshirilgan ilmiy-nazariy qarashlarni qo`llash mumkin.

**Tadqiqot ishining manbalari.** Folklorshunoslikda xalq dostonlari , jumladan, “Alpomish” borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, adabiy-nazariy hamda tanqidiy maqolalar, kitoblar ishning manbasi vazifasini o`tadi. Dostonning 2010-yildagi nashri (“Alpomish” Aytuvchi: Fozil Yo`ldosh o`g`li. Toshkent, 2010- yil) asos qilib olindi. Adabiyotshunosligimizda doston bildirilgan fikrlar, xalq og`zaki poetikasiga xos doir tadqiqotlardan foydalanildi.

**Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va tarkibi.** Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tarkib topganbo`lib, 84 sahifadan iborat.

## **I BOB. “ALPOMISH” DOSTONINING O‘ZBEK MADANIYATI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI**

### **1. 1. “Alpomish” dostoni – o‘zbek xalqining durdonasi.**

“Alpomish” xalqimiz og‘zaki ijodidagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan ko‘p o‘rganilgan dostonidir. Unda o‘zbekning uzoq o‘tmishi, rasm - rusumlari, hayot tajribasidan o‘tgan an‘analari, kurashlari, tashvishlari, quvonchlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Baxshilar mahorati bu dostonni ijro etish darajasi bilan o‘lchangan. Ustoz dostonchilar o‘z san‘atlarini ko‘pincha “Alpomish” ni kuylash bilan ko‘rsatganlar, hurmat topganlar. Muhimi shundaki, o‘zbek millatining hayoti bir tekis ravnaq topgan paytda “Alpomish” dostonini kuylashga e‘tibor katta bo‘lgan. Xalqimiz hayotidagi og‘ir zamonlar hukm surgan paytda bu dostonning ham boshida qora bulutlar quyushgan. Hatto mustabid sovet tuzumidagi qatag‘on yillarida “Alpomish”ni kuylash ham taqiqlangan, “xalqqa zarar keltiruvchi asar” – deb qoralangan (1952). Ma‘lum bo‘ladiki, “Alpomish” taqdiri asrlar davomida o‘zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham dostonning ming yillik to‘yida Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqg‘oy bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”<sup>7</sup>, – degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, g‘oyasi, badiiyati, millatimiz tarixida tutgan o‘rni mujassam etilgan. XX asrning 70-yillarigacha “Alpomish” dostoni haqida bildirilgan mulohazalarning ko‘pchiligi Mahmud Zarifov buyuk san‘atkor Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928-yilda yozib olgan nusxa asosida Hamid Olimjon qisqartirib nashrga tayyorlagan kitobga tegishli edi. Faqat 1969-yilda Berdi baxshidan Abdulla Alaviy va 1972-yilda Saidmurod Panoh o‘g‘lidan Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgandi. Faqat

---

<sup>7</sup>Prezident Islom Karimovning Alpomish dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.

1969-yilda Berdi baxshidan Abdulla Alaviy va 1972-yilda Saidmurod Panoh o'g'lidan Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgandi. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan so'ng "Alpomish"ga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr etildi. 1998 - yilda Xushboq Mardonaqul o'g'li (yozib oluvchi Toshtemir Turdiyev), 1999-yilda Bekmurod Jo'raboy o'g'li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida nashr etildi. 1998-yilda esa Fozil Yo'ldosh varianti 70 yildan keyin to'liq holda bosmadan chiqdi. 1999-yilda esa dostonning ming yillik to'yi katta tantanalar bilan nishonlandiki, bu tadbir o'zbek xalqining ajdodlar yodini ham asta-sekin o'rniga qo'yib esga ola boshlaganidan nishona bo'ldi. Tantanalar arafasida "Alpomish" – o'zbek xalq eposi" nomli maqolalar to'plami va boshqa ilmiy kitoblar, o'nlab gazeta, jurnal maqolalari e'lon qilindi, ko'rsatuvlar tayyorlandi. Dunyodagi qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor Bahodir Sarimsoqov dostonimiz o'zbekning birlashuvi, mustaqil xalq sifatida paydo bo'lishida qanday o'ringa ega ekanini ta'riflab, shunday deydi: "Dastlab qabila, so'ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan "Alpomish" dostoni keyinchalik o'zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi".<sup>8</sup> Haqiqatan ham, doston matnidan juda ko'p o'tmish hayot belgilari o'rin olgan bo'lib, ularni izohlash natijasida asarning xalq qahramonlik eposi ekaniga to'la ishonch hosil qilamiz. Dostonda qadimgi dunyoqarash belgilaridan bir qator namunalar bor. Yoy, o'q, tush, qo'riq kabilar fetish (mif haqidagimavzuni eslang), ot, tuya, g'oz kabi hayvon va qushlar totem tushunchalar ifodasi sifatida aks ettirilgan. Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan yoy yordamida Alpomish nomini oldi. Qadim zamonlarda bolalarga ism qo'yish odati bo'lmagan. Farzand voyaga yetib, bironta mardlik ko'rsatganidan keyin ism olgan. Dostonda Hakimbek qahramonimizning katta mardlik ko'rsatguniga qadar bo'lgan muddatdagi ismi bo'lib qolgan. Shuningdek,

---

<sup>8</sup>Sarimsoqov B., Alpomish eposi haqida uch etyud. Alpomish — o'zbek xalq qahramonlik eposi maqolalar to'plamida. — T: Fan, 1999. 115-bet.

Qorajon tushida musulmonlikni qabul qiladi. Agar dostonni e`tibor bilan o`qisak, bunga o`xshash juda ko`p lavhalarga duch kelamiz. Jumladan, Alpomishga qo`riqqa tushgan ot ma`qul bo`lmaydi. Qayta-qayta qo`riq tashlaydi. Har safar bitta ot ilinadi. Alpomish taqdirga tan beradi. Keyinchalik bu ot (Boychibor) uni ko`p kulfatlardan asraydi. Alpomish Murod tepaning poyiga yetganida, shu tepaga otda to`xtamay chiqishni niyat qiladi. Tepaga chiqadi, niyati ham amalga oshadi. Ko`kaman Barchindan qimiz so`raydi. Agar Barchin qimiz bersa, unga uylanish niyati amalga oshishini o`ylaydi. Barchin qimiz bermaydi. Ko`kaman ham niyatiga yetmaydi. Dostonda bunday qadimiy tushunchalar ko`p uchraydi. Ular dostonning boshidan oxirigacha o`ziga xos fayz bag`ishlab turadi. Ammo dostonning bosh g`oyasi, yaratilishidan nazarda tutilgan maqsad ancha yirik mezon bilan o`lchanadi. Xususan, dostonda yosh avlod vakili Alpomish tomonidan qilingan taklif – zakot to`lash Qo`ng`irot – Boysun elini bir-biridan ajralishga olib keladi. Xalq ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlarni chuqur ilmiy tahlil asosida atroflicha izohlab o`tirmaydi. Shuning uchun uzoq kutilgan farzand – Alpomishning mulla bo`lishidagi bir belgi “zakot” tushunchasi bilan bog`lanadi. “Zakot”ni esa islom dinidagi tushuncha deb qabul qilish to`g`ri emas. Uzoq o`tmishda umuman soliq yig`uvchilarni zakotchi deb atash odati bo`lganligini hisobga olsak, Alpomish taklif qilgan zakotning ma`nosi soliqqa yaqin ekani ravshanlashadi. Boysarining nutqida ham bu mulohaza takrorlanadi. U akasining o`g`li borligini yuziga solganini, akasiga zakot berguncha o`zga yurtida yashagani ma`qulligini aytadi. Vaholanki, islom dinida zakotdan hech kim voz kechgan emas. Aksincha, Allohning zakot berishga yetkazgani uchun shukr qilingan. Shunday qilib, Alpomish paydo bo`lguniga qadar totuv yashayotgan el endilikda bo`lindi. Alpomish esa Barchin xati vositasida Qalmoq eliga borib, o`zi unashtirilgan qizni olib keldi. Natijada, Qo`ng`irot – Boysin yurti bitta yurtboshi rahbarligida birlashdi va hayot kechira boshladi. Shu o`rinda qadim-qadim zamonlarda oddiy haqiqat bo`lgan ikkinchi bir masalani ham aytish lozim.

Gap shundaki, uzoq o'tmish zamonlarda biron yurtning mustaqilligi va dahlsizligi u yurtga qaram bo'lgan qaysidir mamlakatning boyligi bilan ham o'lchanardi. Xalq ertaklari va dostonlarida asar qahramonining biron yurtga qilgan safari o'sha yurtni o'ziga qarashli bo'lishini xohlashi bilan bog'liq ekan, bu masalaga alohida bosqinchilik siyosatini aralashtirish to'g'ri emas. Bu o'rinda ko'proq o'z yurtining mustaqilligini ta'minlash istagi kuchli ekanini ta'kidlash ma'qulroq bo'ladi. Shuning uchun "Alpomish" ijodkorlari atayin Boysaridagi o'jarlik xususiyatini bo'rttirib ko'rsatadilar va shu bilan uning Qalmoq yurtida qolishini asoslaydilar. Aslida esa Boysarining o'zga elda qolishi Alpomishning ikkinchi safarini asoslaydi. Qizig'i shundaki, Alpomish qalmoq eli podshosi Toychixonning mamlakatini to'g'ridan-to'g'ri bosib olmaydi. U Boysariga o'tkazilgan zulm, o'ziga nisbatan amalga oshirilgan xiyonat uchun Toychixonni jazolaydi. Bu yo'nalish hayotiy mantiq asosida o'z yechimini topadi. Jumladan, Tavka oyim ishqida Qo'ng'irotdan qalmoq yurtiga borib qolgan Kayqubod o'z niyatiga yetib (Tavka roziligi bilan), sevgan qiziga uylanadi va taxtning qonuniy vorisiga aylanadi. Ayni paytda, Alpomish qalmoqlar (Kashal) yurtiga o'zining odamini podshoh qiladi. Shu asnoda u go'yo o'z yurtining mustaqilligi uchun kurashgan bo'lib chiqadi. Dono xalqimizning har bir tadbiriga ana shunday, bir qarashda ko'zga ko'rinmaydigan yechimlar vositasini topish mahoratiga ham qoyil qolsa bo'ladi. Alpomishning o'z yurtiga qaytishi va Qo'ng'irotdan - Boysundagi adolatsizlikka chek qo'yishi tabiiy bir xulosa sifatida baholanishi mumkin. "Alpomish" dostonida juda ko'p lavhalar bir qarashda ahamiyatsizdek bo'lib ko'rinsa-da, aslida xalq ular vositasida o'zining turmush tajribalarini ifodalagan bo'lib chiqadi. Masalan, Barchinoydan Alpomishga kelgan xatni Boybo'ri berkitib qo'yadi. Bu bilan Boybo'rining o'zi boshlagan yo'ldan, ya'ni Barchinga o'g'lining uylanishi va Boysunning o'z vataniga qaytishidan voz kechgani ko'rsatiladi. Voqea rivojida Qaldirg'och hal qiluvchi vazifani bajara boshlaydi. U Barchinning xatini tasodifan sandiqdan topib oladi va akasini o'z qaylig'ini olib kelish safariga otlantiradi. Bunday safar xalq qahramonlik eposining asosiy xususiyatlaridan

biri sifatida baholanadi. Alpomish qalmoqlar yurtiga borganida, Barchinning to`qson alp oldiga qo`ygan shartini bajaruvchilardan biriga aylanadi. Masalan, uning Boychibor oti poygadagi to`rt yuz to`qson to`qqizta otga qo`shilib, besh yuzinchi tulpor bo`lib Barchin uchun boshlangan musobaqada qatnashadi. Bu bilan xalq Alpomishning hammadan baquvvat, hammadan mergan, hammadan afzal ekanligini amalda ko`rsatadi. Shuning uchun oti poygada g`olib kelganidan so`ng u yoy tortish, tanga pulni ming qadamdan urish va to`qson alp bilan kurash tushish sinovlarida qatnashib o`zini ko`rsatadi. Bu sinov ham qahramonlik eposi xususiyatlariga mos keladi. Dostondagi Barchinoy bilan bog`liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan tasvirlangan. U zukkoligi, tadbirkorligi jihatidan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampirning o`g`illari Barchinoyni zo`rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo`lganlarida, qiz alplardan birini ko`tarib yerga shunday uradiki, polvonning og`zidan ko`pik sachrab ketadi. Shundan so`nggina alplar Barchinoyga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo`ladilar. Barchinoy Alpomishni sevadi. Ammo Alpomish qalmoq yurtiga kelganida, unga turmushga chiqish shartlaridan voz kechmaydi. Bu lavhada xalq og`zaki ijodining yana bir xususiyati namoyon bo`ladi: Barchin o`z sevgilisi – Alpomishning hammadan ustun ekanligiga va raqiblarni yengishiga ishonar edi. U butun vujudi bilan hamma musobaqalarda (Alpomish tarafida bo`lsa ham) shartlarning haqqoniy bajarilishini kuzatadi. Birinchi shartning bajarilishida Alpomishning oti Boychibor tuyog`iga qalmoqlar mix qoqadilar. Shuning uchun Boychibor azoblanib, yaxshi yugurolmaydi. Barchin unga murojaat qilib, poygada uning yutib chiqishi lozimligini aytib yolvoradi. Alpomish Ko`kaldosh bilan bellashayotganida, kuchlar teng kelib qoladi. Yana Barchinoy Alpomishning nafsoniyatiga tegadigan gaplarni aytib, uning kuchiga kuch bag`ishlaydi. Bu misollar Barchinoyning o`z sevgisiga sadoqatli, irodali, tadbirkor qiz ekanini ko`rsatadi. Dostonda Barchinoy Boysarining mehribon farzandi, Alpomishning sadoqatli yori sifatida mahorat bilan talqin qilingan. Barchinoy otasini sog`inadi va uni olib kelish uchun Alpomishni qalmoqlar yurtiga jo`natadi. Ammo u yerda

Alpomish zindonga tushib qoladi. Barchinoy Alpomishning qaytishini intizorlik bilan kutadi. Farzandi Yodgorga mehribonlik ko`rsatadi. Aqlidrok bilan ish yuritadi. Ultontozning unga uylanish taklifini rad qiladi. Nihoyat, Alpomish Qo`ng`irot eliga qaytadi va ular murod-maqsadiga yetadilar. Dostondagi Qorajon obraziga alohida e`tibor qilishimiz kerak. Chunki Qorajon makkor Surxayil kampirning o`g`li bo`lishiga qaramay, doston davomida haqiqatni himoya qiladi. Surxayil kampir Barchinoyga sovchilikka ketayotganida Qorajon uni yo`ldan qaytarmoqchi bo`ladi. U Qo`ng`irot elidan kelganlarning tinchligini buzmaslikka harakat qiladi. Biroq Surxayil Barchinoyni aynan unga olib bermoqchi ekanini bilganidan so`ng qarshilik ko`rsatmaydi. Surxayil o`g`li Qorajonni aldab, qo`ng`irotliklar oldida uni uyatga qo`yadi. Dostonda Alpomishning cho`ponlar uyida tunagan paytida ko`rgan tushini Qorajon ham ko`radi. Shu tush lavhasi orqali Qorajonning mehr-shafqatli ekanligi ta`kidlanadi. Haqiqatan ham, asarning keyingi voqealarida Qorajon butunlay Alpomish tarafida turib harakat qiladi. Alpomishning jismoniy jihatdan tengsiz pahlavon ekanini biladi va u bilan og`a - ini tutinib, umr bo`yi bu ahdga sodiq qoladi. Hatto akalarini insofga chaqirib, Alpomishga to`siq bo`lmaslikni maslahat beradi. Biroq uning takliflarini alplar qabul qilmaydilar va kurashda halok bo`ladilar. Dostondagi asosiy qahramonlardan biri Qaldirg`och edi. Avvalo, uning ismiga diqqat qilish kerak. Qaldirg`och o`zbek xalqida bahorning elchisi, yurtga baxt keltiruvchi qush sifatida e`zozlanadi. Alpomishning singlisiga ism qo`yishda bu tushunchalar hisobga olingan bo`lsa, ajab emas. Qaldirg`och akasining har bir tadbirini qo`llab-quvvatlaydi, o`rni kelganda, akasidan faolroq harakat qiladi. Asarda shunday bir lavha borki, unda Qaldirg`ochning bir so`zligi oqibatida keyingi voqealar davom etadi. Qaldirg`och sandiqdagi maktubni topib, Alpomishni Barchinni olib kelishga undaydi. Ammo Alpomish yoshligi tufayli Qultoydan ot ololmaydi. Chorasiz qolgan Alpomish Qalmoq yurtiga borishdan voz kechadi. Ana shu paytda Qaldirg`och akasining oriyatiga tegadigan gaplar aytadi va unga dalda beradi. Shundan so`nggina Alpomish Boychiborga ega bo`lib, safarga otlanadi. Ma`lum

bo`ladiki, dostondagi voqealar rivojining eng nozik nuqtasida Qaldirg`ochning aralashuvi Alpomishga kuch bag`ishlaydi. Dostonni to`liq o`qib chiqsangiz, o`zbek xalqining qadim zamonlardan buyon o`ziga xos fazilatlarga ega ekaniga guvoh bo`lasiz. Jumladan, dostonda har qanday mushkul vaziyatda ham inson o`z aql-idrokini yo`qotmasligi, biron qarorga atroflicha mulohaza yuritgan holda kelishi lozimligi uqtiriladi. Insondagi mardlik va jasorat alohida qadrlanadi, aytilgan so`zning qimmatini yuqori baholanadi. Zero, o`z so`zining ustidan chiqadigan mard insongina bunday fazilatlarning qadriga yetishi mumkin. “Alpomish” dostonining so`nggi qismlari alohida diqqatga sazovor. Alpomish o`z yurtiga qaytgach, darhol hammaga kelgani haqida jar solmaydi. O`zini tanitmagan tarzda butun tanish-bilishlari, qarindosh-urug`lari bilan birma-bir uchrashib chiqadi. Shu usul bilan ularning o`ziga nisbatan bo`lgan haqiqiy munosabatlarini bilib oladi. Alpomish birovlarining yolg`on-yashiq gaplaridan kelib chiqib, odamlarga baho berishni istamaydi. Shaxsan o`zining kuzatishlariga ishonib ish yuritadi. Dostonda insonning ma`naviy qiyofasini belgilovchi ezgulik, haqiqiy odamlarga mehribonlik, diyonat, chidamlilik kabi oliy fazilatlar haqida xalqning fikrlari ifodalanganini ham his etamiz. Dostonda ijobiy qahramonlarning fazilatlari salbiy qahramonlar bilan munosabatga kirishganlarida, ularga qarshi kurashganlarida ravshanroq seziladi. Bu o`rinda Boybo`ri, Ko`kaldosh va Surxayilni alohida qayd etish lozim. Xalq tasavvurida yomon xususiyatga ega bo`lish uchun, albatta, bironta odamga yomonlik qilish shart emas. Inson ba`zan o`zining hadiksirashi, cho`chishi, qo`rqqoqlik qilishi, o`z so`zida turmasligi bilan ham yomon odamlar qatoriga qo`shilib qoladi. Chunonchi, Boybo`ri ana shunday odamlardan edi. U hech kimni o`ldirmaydi, birovning haqini yemaydi, hech kimga nohaq tuhmat qilmaydi. Ammo u Barchindan kelgan xatni Alpomishga bermaydi. Alpomishning qalmoqlar yurtiga safar qilishini istamaydi. Hatto Qultoyga Alpomishga ot bermaslik haqida buyruq beradi. Natijada, Boybo`ri maslaksiz, qo`rqqoq bo`lib qoladi. U qalmoqlar yurtida azob chekayotgan Barchinning, ukasi Boysarining, butun xalqning taqdiriga befarq qaraydi. Bu bilan o`zining yaxshi odam emasligini



ko`rsatadi. “Alpomish” dostonining salbiy obrazlaridan biri Ko`kaldosh edi. U jismoniy jihatdan baquvvat, kamon otish, ot choptirishga usta bo`ladi. Biroq jismoniy jihatdan tengsiz bo`lsa-da, hech kimga yaxshilik qilmaydi. Aksincha, Barchinni zo`rlik bilan xotinlikka olmoqchi va Boysari mol-mulkiga egalik qilmoqchi bo`ladi. O`zining bu maqsadiga erishishda hamisha ham mardlik yo`lidan bormaydi. U o`rni kelganda xiyonat, nomardlik qilishga ham tayyor edi. Avvalo, u to`qson alpga zo`rlik ko`rsatib, ularni qo`rqitmoqchi bo`ladi. Barchinning birinchi sharti, ya`ni ot poygasi davom etayotganda esa, Qorajonning oyoq-qo`llarini bog`latib tashlaydi. Boychiborni so`yib yubormoqchi bo`ladi. Bu taklifi o`tmagandan keyin ot bechoraning oyoqlariga mix qoqtiradi. Ammo Boychibor Alpomishga sadoqatini ko`rsatib, ancha ildamlab ketgan Ko`kaldoshning otiga yetib oladi. Shunda Ko`kaldosh Qorajonning yelkasiga musht urib, Boychiborning g`olib chiqishiga to`squinlik qiladi. Lekin o`z maqsadiga yeta olmaydi. Xalq og`zaki ijodida yovuz kuchlarning ramzi sifatida ishtirok etuvchi obrazlardan biri yosuman, yalmog`iz kampirdir. “Alpomish” dostonida ana shunday qora niyatli obraz sifatida yetti alpning onasi Surxayil yaratilgan. Surxayil kampir o`ta makkor, o`zining yovuz niyatiga yetish uchun butun aqlini ustalik bilan ishga soladigan razil shaxs edi. Aslini olganda, Qo`ng`irot yurtidan ko`chib kelgan Boysari boshliq qabila bilan Toychixon xonlik qilayotgan qalmoqlar o`rtasidagi nizoning birinchi sababchisi Surxayil edi. U o`z maqsadini yashirincha amalga oshirishga usta edi. Barchinni o`g`illaridan biriga olib berish bahonasi bilan Boysarining butun mol-mulkiga egalik qilmoqchi bo`lib, Toychixonidan sovchilikka borishga ruxsat oladi. U qatnashgan har bir lavhada ayyorlik, g`iybat hukm suradi. Dostonning ikkinchi qismida Alpomishni zindonband qilishda ham u faol qatnashadi. Boysarini qutqarish uchun kelgan Alpomish bilan qirq yigitni hiyla bilan mast qiladi va hammasini o`ldirtiradi. Xullas, dostonidagi salbiy obrazlarning asosiysi Surxayil kampir edi. U asarning oxirida Alpomish tomonidan jazolanadi. Xalq doston vositasida Surxayil, Ko`kaldosh, Ultontoz kabi munofiq odamlar albatta o`z jazolarini olishlari muqarrar ekanini yana bir bor ko`rsatib o`tadi

## **1.2. Eposda o`zbek xalqi an`ana va milliy mentalitetining aks etishi**

Har bir xalqning og`zaki ijodi uning ko`p asrlik tarixi, etnik xususiyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari, ijtimoiy-maishiy turmushini poetik ifodalovchi tarixiy- badiiy-estetik hodisadir. U o`zbek xalqining asrlar bo`yi umuminsoniy qadriyatlarga hissa qo`shib kelgan milliy ma`naviyatining tarkibiy qismi hamdir. Bunda eng mo`jaz maqoldan tortib, ulkan hajmlardagi dostonlarning ham o`z o`rni, o`z ahamiyati bor. O`zbek folklori bugungi kunda ham yosh avlod ta`lim-tarbiyasiga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Birinchi Prezidentimizning “Alpomish” dostoni munosabati bilan aytgan quyidagi so`zlarini butun o`zbek folkloriga taalluqli desak, xato bo`lmas: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo`y bo`lishga, oilamiz qo`rg`onini qo`riqlashga, do`st-u yorimizni, or-nomusimizni, otabobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o`rgatadi”.

Bu teran ma`noli so`zlarini termalarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki o`zbek dostonchiligi tarixi, uning davomiyligi, professional xalq baxshilari ijodini termalarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Bu o`ziga xos fenomen sirlarini yanada to`laroq ochish uchun xalq termalarini har jihatdan tadqiq qilish zarurligi dolzarb masaladir.

“Alpomish” dostoni - o`zbek xalqining eng milliy asari. Turkiy urf-odatlar, tafakkur tarzi, ruh dostonning har satriga singib ketgan. Afsuski, bu xususiyatlar olimlarimiz tomonidan uzoq vaqtgacha payqalmay yoxud tilga olinmay kelindi. Chunki, umuman, xalq og`zaki ijodiga doir har qanday asarga, xususan, dostonlarga qayerlardadir tayyorlangan qoliplar asosida yondashishga odatlanilganedi. Milliy adabiyotshunoslikda folklor asarlarini tadqiq qilishga doir g`alati birtamoyil bor: xalqimiz tomonidan uzoq o`tmishda yaratilgan voqea-hodisalarkeyinchalik o`ylab topilgan qoliplarga majburan moslashtiriladi. Albatta, fandatipologiya juda ham kerak va usiz ilm bo`lmaydi. Axir hamma makonlardagi vahamma zamonlardagi odamlarda umumiy, universal

xususiyatlar bo'lgani kabi ular tomonidan yaratilgan og'zaki asarlarda ham tipologik jihatlarning borligi ularni hamisha bir nazariy qolipga tiqishtirib talqin etishga asos bermaydi. Bu hol folklorshunoslikka bag'ishlangan ishlarning ilmiy qimmatini oshirmaydi ham. Taassufki, xalq ijodidagi milliy o'ziga xoslik payqab yetilgan va tan olingan hozirgi kunlarda ham folklor asarlarining ildizlarini xuddi Kunbotishdagi kabi qandaydir mifologik ishonchlarga, psixoanalitik asoslarga, ong osti oqimlariga olib borib bog'lashga zo'r berib urinish davom etayotir. Aytish mumkinki, hatto bu ilmiynamo jarayon bir qadar kuch oldi ham. Chunonchi, ayrim folklorchilarimizning "Alpomish" dostonidagi Boybo'ri bilan Boysarining farzandlari tug'ilishidan oldin suyunchi berib, otalik, boylik va shohlik shavkatini ko'rsatish istagida ovga chiqib ketishlarini o'zbekning milliyligidan g'oyat uzoq sabablar bilan izohlaydilar. "Alpomish" dostoni qahramonlik eposi ekanligi barchamizga ma'lum. Xalq og'zaki ijodi namunalarida voqelikning juda mubolag'ali tasviri va qahramonlarga munosabatda hayot haqiqatiga zidlikni kuzatib kelganmiz.

"Alpomish" dostoni ham mubolag'aviylikda boshqa dostonlardan qolishmaydi. Ammo asardagi ijtimoiy munosabatlarni kuzatadigan bo'lsak, asar voqeligining oddiy xayotiy turmushga naqadar yaqinligini anglaymiz. Bu xususiyatni biz syujetning dinamik rivojini ta'minlab turuvchi konfliktlarda yaqqol kuzatamiz.

Asarning ilk konfliktini olaylik: Boybo'ri va Boysari to'yga boradi. To'yda ularni izzat-ikrom bilan mehmon qilishmaydi. Sababi ularning farzandi bo'lmay, xalq ularning to'y-tamosha qilib bu hurmatni, nozu ne'matlarni qaytarishiga ishonmaydi. Bu asardagi birinchi konflikt bo'lib, syujetdagi barcha voqelikning boshlanish omili hisoblanadi. To'yda Boybo'ri va Boysaribiylarga bo'lgan munosabat hech ham sun'iy emas, aksincha kishilarning munosabatida tez-tez ko'zga tashlanuvchi tabiiy hodisadir. Dostonning butun syujeti uchun tugun bo'luvchi keyingi hodisaga e'tibor qilaylik. Zakot so'rash voqeasi va undagi konflikt ham judayam tabiiy tarzda

tasvirlanadi. Umuman Boybo`ring zakot olish kerakligi haqida o`y surishi: “ukam gunohkor bo`lib qolmasin” deya ish tutishi voqealarini esga olaylik. Bir qarashda, bu o`rinda ukasining oxiratidan qayg`urayotgan akani ko`ramiz. Mulohaza yuritilsa, shakllanib kelayotgan hokimiyat boshlig`ining o`z haqqini qarzdorlarga eslatib o`tishdagi ilk qadamini ham sezishimiz mumkin bo`ladi. Bu esa davlatchilik qonuniyatlarini yodga solishlik bilan bir qatorda, ijtimoiy munosabatlardagi asl ziddiyat (kuchlining kuchsiz bilan aloqasi)ni ham namoyon qiladi.

Surhayl kampir ham yurtdagi obro`yi, kuch-qudratidan kelib chiqib, boylarga dabdurusdan zo`rlik qilib, Barchinni tortib olmoqchi bo`lmadi. Suhayl boynikiga sovchi bo`lib boradi. Uy oldida itlarning talaganiga qaramay kelin orzusidagi kampirning jahli chiqmaydi, mulozamat bilan Boybichadan “qizingning boshi ochiqmi” deya so`raydi. Qarangki, dostonning bu qismida Suhayl va boylarning ilk ziddiyatli munosabatiga asos solinadi. Ahamiyatlisi shundaki, Boybichadan achchiq haqoratlar eshitganiga qaramay, kampir mehmonligini unutmaydi. Rasm-rusmini qilib oldiga tortilgan oshdan “ikki guruch” bo`lsa-da tatib qo`yadi. Ya`ni, Boybicha ayni vaqtda dushmanga aylangan bo`lsa-da, u mezbon, kampirni quva solmaydi – mehmonga osh tortdi. Kampir esa mehmon sanalib, dushmanini emas, mezbonni hurmat qilishga mahkum. Nazarda tutayotgan qahramonga haqqoniy munosabat realistik asarlarga hosdir. Ammo “Alpomish” dostonida qahramonlarga munosabat realistik metod tomoyillari ostida kechadi.

Ko`kamanning Barchin bilan ilk munosabatida paydo bo`lgan konfliktga nisbatan ham shunday munosabatda bo`lish mumkin: Ko`kaman Barchinni ko`rib qolarkan zo`rlik qilib olib qochishni o`ylamadi(balki “bunga imkonim bor” deb bilsa ham). U “borib qimiz so`ray-bersa uni olaman, suv bersa quruq qolaman” degan maqsadda bo`ladi. Barchinga “gap otar”kan uning nutqida dag`allikni ko`rmaysiz.

Alplarning barchinga og`iz solishi ham tabiiydir. Chunki, Barchinday

go`zal va boyvachcha qizga faqatgining yurtning eng oldi alplari loyiq edi. Alplarning talabi o`rinli bo`lib, Barchin haqiqatdan ham kimgadir tegishga majbur. Vaholangki, u aytayotgan Alpomishdan hali darak bo`lmasa... Alplar nega 6 oylik muhlatga ko`nadi? Chunki salbiy qahramon bo`lmasin, ularda applarga xos mardlik xususiyati bo`lishi tabiiydir.

Natijada beshikkerti qilib qo`yilgan Alpomish (Boybo`rining o`g`li) bilan Oybarchin (Boysarining qizi) ayriliq domiga tushishadi. Dostonda musulmon turmush tarzi, axloq qoidalari va rasm-rusumlariga oid juda ko`p tafsilotlar keltirilgan.

### 1. 3. Milliy qadriyatlarning doston syujetida tutgan o`rni

Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. “Alpomish” dostoni o`zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki asarda o`zbekka xos o`ylash tarzi, ta`sirlanish yo`sini, qarorga kelish tutumi g`oyat nozik ilg`ab olingan. Juda ko`pchilik folklorshunoslar, odatda, markazlashgan davlat tuzish, bo`lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat mavzulari “Alpomish” dostonining syujet rivojini ta`minlaydi deb tushuntirishadi. Bizning nazarimizda esa doston markazida ma`rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta`siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish uchun emas, balki “qissa” ning o`zi ko`lamli, miqyosli, yirik, ta`sirli; Chindanda, “Alpomish” yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki doston qahramonlariga xos tuyg ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turkiylarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi<sup>9</sup>. Turkiy xalqlar tomonidan kechirilgan, tuyulgan, hozirda ham qonda kezib yurgan ma`naviy amallar, hodisalar uning ko`nglida, “tili uchida” turgandi. O`sha kuylab yuborildi. Alpomish taqdirini kuylash zarur edi. Kuylamaslik ilojsiz edi.

Doston syujeti ham ayni tug`mas kundoshlar uyushtirgan tuhmatlar sabab ro`y bergan voqealar asosida rivojlanadi. Uchinchidan, “Rustamxon” dostonida ochiqdan-ochiq: “Sultonxon Huroyim yoriga aytdi: “Dunyodi bir qo`rqan yomon, bir quvongan yomon” degan gap bor, Mening qariganda ko`rgan farzandim; Men shu yerda yursam, sen bir kun tug`ib qo`yarsan. Men quvonganimdan yuragim yorilib o`lib qolarman. Qurudum mamlakatiga safar qilayin. Oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdak tanga-tilla berarman, qulog`idan dunyoga ko`marman, balyu qo`rg`onbegi qilarman”,-deb qo`yilgan. «Alpomish»dostonida ayni shu holat quyidagicha asoslanadi: “...biylar ikkovi

---

<sup>9</sup> Yo`ldoshev Q. Alpomish talqinlari. –Toshkent: Ma`naviyat, 2002. –B. 28.

aytdi: “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo`lga chiqib, bizlardan tilla-tanga in`om olsa`,-deb o`ylarni o`ylab, biylar ovga jo`nab ketdi. Doston tuguni ma`rifatsizlik, jaholat va xudbinlikdan paydo bo`lgani quyidagi parchadan anglashiladi: “Ey bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo`lmagan, endi akamiz o`g`illi kishi bo`lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo`libdi-da!” deydi Boysari. Zakot haqidagi qonuniy talabning, ukasining shariat qonuni bo`yicha baxil bo`lib qrlishvdan qo`rqib, `chora` ko`rgan akaning ezgu tilagi aynan johillik tufayli, shunday tamomila teskari talqin qilinayotir. Johilliq atamasini bu o`rinda shar`iy ma`rifatsizlik ma`nosvda ham, o`jarlik ma`nosida ham, jahldorlik ma`nosida ham tushunish mumkin va o`rinli. Ma`rifatsiz, johil kishi xudbin bo`ladi. Bunday odam hamma narsada faqat o`zini ko`radi, o`zini eshitadi, mantiqqa quloq osmaydi. U hayotni boricha ko`rib anglashga qobil emas, balki o`zi istaganicha ko`radi va ko`rganicha izohlaydi. Qarashlarini hayotdan keltirib chiqarmaydi. Aksincha, hayotni qarashlariga moslamoqchi bo`ladi. Shu bois zakot ber degan shar`iy talab Boysariga zug`um bo`lib ko`rinadi, adolatsizlikday tuyuladi. Shuning uchun ham so`fiylar: `O`zingdan o`tting – yetding`, – deyishadi. Uzidan baland turolmagan odam hech qachon Yaratganning marhamatiga noil bo`lolmaydi, – uning jamoliga yetisholmaydi.

Boysarining aqli qolipda, ongi jaholat iskanjasida bo`lsada, ko`ngli butunlay ma`rifatsiz emas. Aks holda u akasi bilan jang qilishi, “toptalgan” sha`ni uchunqurri o`qtalib, “qonuniy” o`ch olishi ham mumkin edi - da. O`n ming uyli elatni ovora qilib, xalqi osudaligini yo`qqa chiqarsa - da, akasiga yaroq ko`tarmaganining o`zi Boysarining Xudodan umidi bor deyishga asos bo`ladi.

Asarda Boysari ikki bor g`oyat qaltis o`rinlarda qarindoshlardan maslahat so`raydi. Va har ikki safar ham elning oldi, donosi, bilgasi emas, balki: “Majlisli kun bo`lsa to`rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo`sag`ada kovushga joy byormayi kovush bilan aralashib, it yiqilish bo`lib, payga betda

yotar edi” deb sifatlangan tirtiboy (dostonda shunday ataladi, aslida yarimta ma`nosidagi Yortiboy bo`lishi kerak) maslahat beradi. Bizningcha, bu tasvir tasodifiy emas va u shunchaki kulgi tug`dirish uchungina berilmagan. Shu holatdagi odamdan chiqqan maslahat nima bo`lardi-yu, shu asosda qilingan ish, tashlangan qadam qanday samara berardi?

Dostonning tasvir yo`sinini rangin. Undagi bironta obraz ham jo`n, oddiy tasvirlanmagan. Jumladan, hatto Boysari obrazi ham tasvir vaziyatiga qarab turli qo`rinishlar kasb etadi. U hamisha faqat mantiqqa zid o`jarlik bilangina band emas. Boysari tadqiqotchilar shu vaqtga qadar da`vo qilganlari kabi faqat o`zini o`ylaydigan, o`jar odamgina emas, nomus tuyg`usi o`tkir, otadik mas`uliyatini chuqur his qila biladigan shaxs ham. Bu jihat obrazning quyidagi so`zlarida to`liq namoyon bo`ladi:

*Tong otgancha muhlat olib turaman,  
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!  
Yuragim to`lgandir diydayi g`amda,  
Barchinoydi o`z tengiga qo`shmasam,  
Mashhar kuni Barchin qo`li yoqamda... (Alpomish. 15 )*

Uning Yortiboy maslahatidan so`nggi dardchil holati asarda juda ta`sirli berilgan. Ishongan kishilaridan ko`ngli qolgan, ruhan yolg`iz ekanligini endi anglab yetgan chorasiz boy tushgan holatning izhori quyidagi so`zlarda ifodalangan deyish mumkin:

*Yuragimda ko`pdir alamli dardlar,  
Mening qizim-sening singling, nomardlar.  
Qizing ber deb mening ko`nglim bo`lasan,  
Suyagimni yongan o`tga solasan,  
Qalmoqlardan badtar izza qilasan. (Alpomish. 26 )*

Keltirilgan she`riy parchada nomusli ota iztiroblari nozik berilgan. Dostonning ayni o`rnida qorin g`amidagi yaloqxo`rlarning holati ham e`tiborga loyiq tasvirlangan. Olijanob tuyg`ular, yuksak sezimlar tanti va mard odamlargagina tegishli. Bu sifatlar yuksak insoniy fazilatli kishilar qismati,



nasibasi. Ular shu qismat dardida yashaydilar:

*Tong otgan so`ng bitar alplar muhlati,*

*Ziyodadir Boysarining kulfati,*

*Maslahat bermadi turgan ulfati,*

*Qolmadi Boysaribiyning toqati. (Alpomish. 27 )*

Aslida qudratli inson ma`naviy butunligining belgisi bo`lmish bu siniqlik qahramonni sanoqsiz sinovlardan omon-eson olib o`tadi. Alpomishni, oxir-oqibatda, zindondan ham otning qutqarishi zamirida qahramon qalbidagi ana shu ishonch yotgandir, ehtimol. Doston ijodkorlari ayqi shu holatlarni nozik ilg`aganliklari va ustalik bilan hisobga olganliklari jihatidan benazirdirlar.

Asardagi butun voqealarning “Din yo`lida” va “nomus bilan o`rni” saqlash uchun sodir etilganligi hamda doston voqealarini ko`rsatish jihatidan diqqatga sazovor xulosalar bularning ishtirokchisi bo`dmagan xolis chopar tilidan yo`l- yo`lakay ifoda etiladi. Holbuki, tadqiqotchilar Alpomish ko`rsatgan qahramonliklarning sabablarini izoxlashga uringanlarida adabiy hodisalarni hay ijtimoiy nuqtai nazardan tushuntirib keldilar. Ammo biror mutaxassis og`irkarvon Alpomishni harakatga keytirgan, uni bunchalik qahramonliklar ko`rsatishga undagan asosiy sabab o`zbekka xos or-nomusni saqlash tuyg`usi ekanligani ko`rmadi. Odam umrida shundai bir vaqtlar bo`ladiki, nega aynan shunday yo`l tutganligini o`zga emas, hatto o`zi ham tushuntirib berolmaydi. Kunbotishning ilmi ayni shu tushuniksizlikni ongosti qatlamlarida ro`y bergan ruhiy jarayon bilan izohlashga urinadi.

“Alpomish”ning haqiqati shundaki, Hakimbek - favqulodda jismoniy kuch egasigina emas, balki g`ayb qudratidan quvvatlanadigan shaxs. Shu bois doston syujeti davomida u bir tekieda harakatlanmaydi. Qay bir o`rinlarda g`oyat qudratli, unga hech qanday to`siq yo`q, qay bir kezlarda esa ojizu notavon. Bu tasvirdagi noizchillikdan emas, balki qahramon imkoniyatlarining har o`rinda har xil namoyon bo`lishida. Asar bosh qahramoni tabiatiga xos jihatlar yorqin inkishof etiladigan o`riylarda, odatda, Alpomish g`ayb kuchlariga iltijo qiladi ulardan yordam so`raydi. Ayonki, g`ayb kuchlariga

odamning nolasi hamisha ham yetib boravermaydi yoxud bu kuchlar doim ham yordam berishni lozim deb bilmaydi. Negaki, odam sinovlarda toblanadi, azoblar orqali poklanadi. Shuning uchun hamilohiy kuchlar o`zlari suygan shaxslarga yeinovlar orqapi poklanish imkoniyatini berishadi. Ularni har qanday xasu cho`pdan ham asrayverishmaydi. Alpomishning zindonda yetti yil indamay yotavermaganligi, necha bor Yaratganga yolvorganligi aniq. Lekin unga qutulish imkoniyati yetti yil to`lganda, shunda ham Boychibor vosita qilingach, berildi. Dostonda Alpomishning Allohga, payg`ambarga, pirlarga, chiltonlarga iltijosi va uning ijobati tasviri ham shundan dalolat.

Xalqimizning dil tarjimoni bo`lib kelgan xalq kitoblarining kattagina qismini muhabbat mavzusidagi asarlar tashkil etadi. Xalqimiz xazinasidan o`rin olgan “Oshiq G`arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”, “Yusuf va Zulayho”, “Asil va Karam”, “Bahrom va Gulandom” singari o`zbek xalq kitoblari sevgi-muhabbatni ulug`lovchi asarlardir. Ishqiy-romantik mavzudagi xalq kitoblari yaratilishi jihatidan qahramonlik ruhidagi xalq kitoblaridan bir oz keyin vujudga kelgan bo`lsada, ularda feodal munosabatlar tub asosiga, ko`pgana masalalariga qarshi bo`lgan progressiv g`oyalar targ`ib etilgan. Ayni paytda mazkur asarlarda xalhning muhabbat haqidagi ideali, orzu-o`ylari o`zining mujassam ifodasini topgan.

## I bob bo'yicha xulosa

1. O'zbek xalqining mustaqil xalq sifatidagi o'ziga xos belgilari birinchi navbatda qahramonlik eposlarida ars etadi.

2. Tildagi har bir so'z va so'z o'zining milliyligi va serqatlamligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. "Alpomish" dostonidagi har bir ibora, maqol, matalda yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, og'zaki adabiy tilimiz tarixidan dalolat beradi.

3. "Alpomish" dostonida qadimda ota- bobolarimiz amal qilgan urf-odatlar, udumlar go'zal til, jozibali nutq, betakror tasviriy ifodalar bilan yetkazib berilganki, bugungi yoshlarimizga uni singdirish, ularni bu udumlar bilan tanishtirish o'zlikni anglashga undash bilan birga, xalq tili qudratini ham his etishga xizmat qiladi.

4. Xalq ijodini o'rganishda uning jonli og'zaki ijro sharoitida o'ziga xos ravishda yashash, tarqalish xususiyatlarini, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq ayrim hodisalarning aks etish darajasi, aniq asarlar syujet tizimida tutgan o'rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etishni talab qiladi.

5. "Alpomish" dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o'rni, uning epik timsollar tizimi tadrijidagi mavqeyi, jahon mifologik tafakkur tajribasining "Alpomish" dostoniga ko'rsatgan ta'siri va undan o'rganilgan jihatlar, doston syujetining yaratilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi va boshqalar tekshirish mumimdir.

## II BOB. “ALPOMISH” DOSTONIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. “Alpomish” dostonidagi etnografizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari

“Alpomish” dostoni o`zbek folklorining shoh asarlaridan biridir. Unda qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug` birligi motivlari baralla kuylanadi. Xalq og`zaki ijodining noyob durdonasi bo`lmish “Alpomish” dostoni mamlakatimizning o`zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan qahramonlik qo`shig`idir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo`lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti.<sup>10</sup> Chindan ham o`zbek xalqining ma`naviy olamini, urf-odatini, ruhiyat dunyosini ko`rsatib beruvchi ko`zgu bu “Alpomish” dostonidir. Ushbu dostonida o`zbek millatiga xos yuksak axloqiy fazilatlar: vafo, sadoqat, chidam, birodarkushlik, mardlik, or-nomus, bag`rikenglik asarning boshidan- oxirigacha tarannum etilgan. “XX asarning 50-yillarida milliy merosimizning ko`pgina namunalarini kabi, “Alpomish” dostonini ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag`onga uchragan edi. O`sha og`ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko`rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo`lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz”, - deb I. A. Karimov “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asarlarida yozganlar. Chunki bu asarda o`zbek xalqining badiiy tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, boy leksikasini aks ettiruvchi bebaho xazinadir. Mustaqillik yillarida yurtimizda hamma sohalar kabi dostonchilikni rivojlantishga ham katta e`tibor berildi va 2000-yilda “Alpomish” dostonining ming yilligi butun jahon miqyosida keng nishonlandi.

“Alpomish” dostonida xalqning madaniyatini ko`rsatib beruvchi marosimlar, maqol-matallar, frazeologizmlar, o`yinlar mavjud. Bularning har biri o`zbek xalqining madaniyatini ro`yi-rost ko`rsatib bergan. “Alpomish” dostonida milliyligimizni anglatuvchi va hozirgi kunda ham mavjud bo`lgan

---

<sup>10</sup>I. A. Karimov Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch Toshkent “Ma`naviyat” 2008 33-bet

quyidagi etnografizmlar mavjud:

Boysarining qizining otini oy Barchin qo`ydi. Ana shunda Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikirti qilib: “Bu ikkovi eri-xotin bo`lsin, deb fotihani betiga torti.”<sup>11</sup>

Ushbu parchada beshikirti qilmoq (bolalarni beshikligidayoq unashtirib qo`yish odati)<sup>12</sup> marosimi aks etirilgan. Ya`ni Shohimardon piri Hakimbek va oy Barchinni ularga ism qo`yayotgan chog`da ularni beshikkerti qilib qo`yadi. Bu urf-odatni uzoq yillar davomida xalqimiz amalda qo`llab kelgan. Hozirgi kunda ham ayrim hududlarda bu odat davom etayotgan.

*“Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga pulga chiqib, bizlardan tilla-tanga in`om olsa”,-deb bu o`ylarni o`ylab biylar ovga jo`nab ketdi. (“Alpomish” dostoni, 6-bet)*

Yuqoridagi parchada suyunchi (biron quvonchli voqea to`g`risida xushxabar keltiruvchiga beriladigan sovg`a, mukofot)<sup>13</sup> berish odati aks ettirilgan. Bu odat o`zbek xalqigagina xos urf-odatlardan biri. Insonlar xursand bo`lgan vaqtida bor dunyosini ham berib yuborishga tayyor bo`ladi. Chunki bu paytda xursandligidan mast bo`ladi. Bu odat o`zbek xalqining eng oliyjanob fazilatlaridandir.

*Qo`shquloq alp aytdi: -Biz qalinidan qutilib, qalin molini berib, olmoqchi bo`lib yurgan qizga har qaysing nimaga borasan urinib?! (“Alpomish” dostoni, 48-bet)*

Hozirgi kunda ham Xorazm va voha viloyatlarida saqlanib qolgan qadimiy udumlarimizdan biri qalin (nikoh to`yida kuyov tomonidan kelin tomonga beriladigan, to`lanadigan pul, mol)<sup>14</sup> berish. Ya`ni kuyov tomon

---

<sup>11</sup> Alpomish. — Toshkent, O`qituvchi, 1987. —B. 7.

<sup>12</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati.-Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.I jild. — B. 246.

<sup>13</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati. — Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. IIIjild. — B. 600.

<sup>14</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati. — Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.V jild. — B. 228.

qizning otasiga shunday iffatli, odobli, aqlli, go`zal va maftunkor qizning voyaga yetkazganligi uchun minnatdorlik sifatida beriladigan to`yonadir. Bu urf-odatlar o`zligimizni, milliyligimizni ko`rsatib beruvchi muhim bir omildir.

*Katta kichiklar kelib, to`yning asboblarini tuzatib, qancha so`qim mollar so`yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to`yib, shul aynosda qirq kecha-yu qirq kunduz to`y berib yotdi. ("Alpomish" dostoni, 6-bet)*

Xalqimiz bolajon xalq bo`lgani uchun farzand tug`ilishi bilan unga jonliq aytiladi va uni beshkacha, aqiqa to`yi, sunnat to`yida uni so`yiladi. Shu marosimni so`qim (so`yish uchun semirtirilgan, bo`rdoqi qora mol)<sup>15</sup> so`ydi deb ataladi. Bu urf-odat hozirgi kunda ham saqlanib qolgan.

*Boybichani ko`p ag`darib so`radim,*

*Boshi bo`sh ekanin toza sinadim,*

*Senga atashtirib ro`mol o`radim,*

*Shu bugun qalliqqa borgin, Qorajon. ("Alpomish" dostoni, 38-bet)*

O`zbek xalqida shunday bir udum borki, u ham bo`lsa: qizning uyiga sovcilar kelishadi va agar sovcilarga rozilik bildirmoqchi bo`linsa, mehmonlarga ro`mol, belbo`g`, oq mato beriladi. Ushbu sovg`a ishonch va rozilik belgisi hisoblanadi. "Alpomish" dostonida Surhayl kampir o`g`li Qorajon uchun Boybarchinga sovcilikka boradi. Aslida ro`mol boshqa ma`noda o`ralgan bo`lsa ham, o`g`liga rozilik belgisi sifatida ro`mol o`radim deb aytadi. Ya`ni bu yerda sovcilikdan ro`mol o`rab kelish rozilik, ishonch ma`nosi bildirgan. Bu yer-odatimiz bugungi kunda ham amalda mavjuddir. Shuni aytish mumkinki, urf-odatlarimizning bardavomligini o`lmas durduna asarimizni o`qish, o`rganish orqali davom ettirishimiz mumkin.

*Bu so`zni Ko`kaman alpdan eshitib, barchin kaniziga aytdi: - Bu qalmoq qimizni bizdan irim bilan so`rayapti. Bir jom suv bergin, bizdan suvday sovib ketsin, umidini uzib ketsin. Bu so`zni eshitib, kanizi o`rnidan turib, jomni olib, tiniq suvni olib, Ko`kaman alpga uzatdi. ("Alpomish" dostoni, 44-bet)*

---

<sup>6</sup>O`zbek tilining izohli lug`ati. — Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. III jild. — B.621.

Ko`kaman apl suluv Barchinoyimning oldiga qimiz so`rab boradi. Agar so`ralgan qimiz berilsa, rozilik ma`nosini anglatadi. Buni tushunib yetgan Barchin suv berishni aytadi. Buning ma`nosi esa norozilik bo`lgan. Ko`kaman alp shuning uchun jahli chiqadi. Bu oddiygina irimda ko`plab ma`no bor. Ya`ni o`zbek qizlari iboli, hayoli, iffatli bo`lganligi uchun unga to`g`ridan to`g`ri turmushga chiqishini so`rab bo`lmaydi, bu holat qiz bola uchun hijolatli hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu rozilikni qimiz so`rash bilan bilib olinmoqchi bo`lingan. Bu ham bo`lsa o`zbek xalqining qay daraja madaniyatli, salohiyatli ekanligidan dalolat beradi.

“Alpomish” dostoni o`zbek xalqining madaniyatini, adabiyotini, urf-odatlarini, hayot turmushini, milliyligini ko`rsatib beruvchi bebaho xazinadir. Ushbu asarda keltirilgan urf-odatlar, marosimlar, irim-sirimlar hozirgi kunda ham ado etiladi. Malumotlarga qaraganda, “Alpomish” dostoni X-XI asrlarda paydo bo`lgan va baxshilarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan. Ushbu doston o`zbek xalqining shakllanishidan to hozirgi kungacha bo`lgan barcha urf-odatlarni o`zida mujassam etgan nodir asar. Aynan ushbu asar orqali dastlab xalqimiz qanday marosimlarni bajo etgani, xalq o`yinlarini qanday tarbida bo`lganligini, adabiyotini, xalq qo`shiqlarini qay tarzda bilganligini ushbu asardan bilib olamiz va o`rganamiz. Har qanday folklor asari namunasi bu milliy qadriyatlar namunasi. Xalq og`zaki ijodining eng kichik janri maqoldan tortib to epik hajmga ega bo`lgan dostongacha barcha, barchasida milliy qadriyatlar o`ziga xos tarzda aks etganligini ko`ramiz. Biz bugun ushbu ulkan masalaning faqat birgina jihati, ya`ni milliy va umum insoniy qadriyatlarimiz epos va marosimda qay tariqa aks etishini ko`rib chiqamiz. Epos va marosim haqida so`z ketganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog`lab turuvchi eng muhim jihatni eposning xalq ijodining spetsifik namunasi sifatida marosim va marosim folklori bilan bevosita aloqadorligida ko`rishadi. Shuni aytib o`tish kerakki, eposning, ayniqsa, qahramonlik dostoniarining bevosita marosim bilan bog`liq jihatlari hali yetarli darajada o`rganilgan emas. Arxaik eposda, jumladan, mazkur dissertatsiyamizning tahlil obyekti bo`lgan “Alpomish” dostonida ham

marosimlarning muhim o`rin tutishi va ustuvor qonuniyat kashf etishi kuzatiladi. Biroq, qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug`iladi, deb xulosalash masalani o`ta jo`n hal etish bo`ladi. Marosim epik formalarning transformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ushbu arxaik epik formaning bevosita marosim bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etish eposning tub asoslarini yoritishda o`ta muhimdir. Bu o`rinda ikki jihatga alohida to`xtaiib o`tish zarur: Birinchidan, eposning marosimlardagi o`rni va funksiyasi. Bugungi kunda O`zbekistonning janubiy viloyatlarida davom etayotgan qadimiy an`ana - to`y-tomosha va boshqa marosimlarning baxshilar ishtirokida o`tkazilishi. Ikkinchidan, marosimlarning eposda aks etishi, ya`ni marosimlarning epos syujetida tutgan o`rni. “Alpomish” dostonini, ta`bir joiz bo`lsa, xalqimizning hamma marosimlar, urf odatlar, irim-sirim, tabulaming qomusi” deb atash mumkin. Chunki hech bir eposda xalqimizning maishiy hayoti bunchalik keng ko`lamda o`zining badiiyi fidasini topmagan. Farzandning tug`ilishidan oldin ovga chiqmoq, suyunchi olmoq, farzandning tug`ilishi, farzandga ism qo`ymoq, etagiga solmoq, beshik to`y, to`y maslahati, jarchi qo`ymoq, chufurron to`y, to`yona bermoq, atashtirib beshikkerti qilmoq, ikkinchi ism qo`ymoq, atashtirib ro`mol o`ramoq, qalliqqa bormoq, sovchi quymoq, shartlashish (kurash , ko`pkari, poyga), kuyov navkar, to`qqiztovoq, kuyov tovoq, o`tni aylanmoq, qiz yashirdi, vakil ota, vakilini bermoq, chimildiq tutmoq, it irillar, oyna ko`rsatar, soch siypatar, qo`l ushlatar, kuyov uloq, yuz ochdi, baqan tashlamoq, solom bermoq, o`lan aytmoq kabi turli xil odat va marosimlarning “Alpomish” eposidan joy olishi muhim ahamiyatga ega va u maxsus tadqiqotni talab etadi. Epos va marosimni o`rganishda birinchi navbatda qiyosiy tipologik metodning ustuvorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvopoetik va ruhiy tahlil kabi ko`plab metodlarga ham suyanish lozim bo`ladi. Qiyosiy tipologik tahlilda birinchidan, marosimlarai o`zaro qiyosiy o`rganish mumkin bo`lsa, ikkinchi tomondan uni epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug`iladi. Lingvopoetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuqurroq yoritib berishda asosiy omil bo`ladi. Struktural metod esa epos va



marosim tizimini o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki arxaik epos bilan marosim strukturasi o`zaro uyg`un kelishini ko`ramiz. Shomonning shajarasi, uning tanlanishi, homiy ruhlar ko`magida bo`lishi, o`zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o`zga qiyofaga ega bo`lishi – bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg`u berilishi, Hakimbekning tug`ilishi va doimo pirlar ko`magida bo`lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga o`tlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya`ni ramziy o`liklik holatidan so`ng, qayta tirilib chiqib, Qultoy qiyofasiga kirishi, struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko`ramiz. Qolaversa, eposning genetik xususiyati uning janr strukturasi o`rganish orqali ochiladi. Marosimning eposda aks etishi haqida so`z ketar ekan, uning asosan ikki: a) maishiy turmushda o`z ijro o`rniga ega bo`lib, eposda ham badiiy aks etgan (farzandning tug`ilishi, ism qo`yish, beshikkerti qihnoq, atashtirib ro`mol o`ramoq, sovchi qo`ymoq, qalliq o`ynamoq va hokazo; b) maishiy turmushda ijro o`rni unutilib, badiiy holatga ko`chgan (farzand tug`ilishidan oldin ovga chiqish, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo`yilishi va h.k.) jihatlarini tadqiq etish lozim bo`ladi. “Alpomish” dostonida farzandning tug`ilishi ilohiy xususiyat kashf etadi. Ilohiy tug`ilish esa folklorda yetakchi motivlardan biri bo`lib, u bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, ota-onaning farzandsizlik holati. Bu bir tomondan ona urug`chilik bilan bog`liq tasavvurlarning marosim va dostonlarimiz qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan dostonda ramziy ma`no kashf etib, parokanda elni birlashtiradigan, hokimiyatni mustahkamlaydigan yangi avlod, yangi alpning tug`ilishini anglatadi. Qahramonga ism berilishi bilan bog`liq o`rinlar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo`lsa-da, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni Hakimbek yetti yoshga to`lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o`n to`rt botmon parli yoyni otgani uchun tug`ulish “Alpomish” deb ataladi: „Shunda barcha xaloyiqlar yig`ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo`lsin. To`qson alpning biri bo`lib sanaga o`tdi”. Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan

so`ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. To`qson alpning biri bo`lib sanaga o`tdi”. Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so`ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu, birinchidan, shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolotga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan, uning boshqa qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega boiganligini ham ko`rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba`zan oilada o`g`il farzand tug`ilsa, uni “orqalik” ekan deb hamda ins-jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg`on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa u xastalikka chalinishi mumkin, degan qarash mavjud. Ma`lum bir muddatdan so`ng kichik bir marosim o`tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo`yilgan. Eposda marosim hech qachon batafsil tasvirlanmaydi, balki, uning muhim nuqtalari o`z aksini topgan bo`ladi. Eng e`tiborli jihati, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb “Alpomish” dostonidagi Hakimbekka ikkinchi ism berilishi bilan bog`liq halqalqolib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy puturyetadi. Demak, marosim ma`lum ma`noda epos syujet halqasining yuzaga kelishiga zamin bo`lishi bilan birga, bevosita estetik funksiyani ham bajaradi. Dostonda Surxayl kampir Barchinning onasiga qarata shunday deydi:

*Qozonda qaynagan shirboz go`shmididi,*

*Shul qizingning agar boshi bo`shmididi.*

*Boshi bo`shmi deyin, sendan so`rayman*

*Kelin qilib biror ro`mol o`rayin.* “Boshning bo`shligi” hali qizning birovga atalmaganligi, hech kirn bilan ahdu paymon qilmaganligi va ota-onasining rozi-rizoligi olinmaganligini anglatadi. Barchin esa tug`ilgandayoq “beshikkerti” qilingan edi. “Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikkerti qilib: “Bu ikkovi er-xotin bo`lsin, Hakimbek bilan hech kim barobar bo`lmasin, omin ollohu akbar”, – deb fotihani betiga tortdi”. Beshikkerti qilish odati va u bilan bog`liq marosimlar bugungi

kungacha ham xalqimiz hayotida saqlanib qolgan. Beshikkertida, albatta, bo`lg`usi kelinning boshiga ro`mol o`ralib, biror bir tilla taqinchoq taqilgan. Bosh kiyim esa hamisha muqaddas sanalgan. O. Suxareva O`rta Osiyo xalqlari bosh kiyimga alohida e`tibor berishlarini, yoshiga qarab bosh kiyimlari ham o`zgarib borganligi va bar bir marosimda bosh kiyim muhim ahamiyat kasb etganligini ta`kidlaydi. Qadimda esa bosh va bosh kiyim ko`k bilan bog`langan. Shuning uchun Boybichaning Surxayl kampirga bergan keskin javobida ham bir tomondan qizining yoshligida Hakimbek bilan “beshikkerti” qilinganligi ta`kidlanayotgan boisa, ikkinchi tomondan ular ikki dunyo, ikki olam vakili ekanligiga ham ishoradir. Barchinning eldan ajratilib, baland bir tepalikka o`tov tikishi dostonida shunday tasvirlanadi: O`n ming uyli Qo`ng`irotdan chiqarib, Barchinning o`tovini ko`tarib, hu, anaday ovioq tepaning boshiga tikib qo`ydi. “Bul o`tovda qirquin kanizlari bilan Barchin o`tirdi”, Bu yerda diqqatimizni tortadigan ikki jihatga to`xtalib o`tish zarur. Birinchisi, Barchin o`tovining tepalikka tikilishi. Tepalik, tog` qadimda marosimlar o`tkaziladigan muqaddas joy hisoblangan. Ikkinchisi, o`tovning oq va baxmal ekanligi. Oq va qizil (baxmal) rang birinchi navbatda ikki olam (erkak va ayol birligining makoni) haqidagi qadim tushunchalarni o`zida ifoda etgan. Shuning uchun bu ikki rang eposda ham, marosimlarda ham aniq ramziy ma`noga ega. O`zbekistonning janubiy viloyatlarida uzatilayotgan qiz to`y kuni biror bir qarindoshi yoxud qo`shnilaridan birinikida, ya`ni o`z uyi-dan o`zoqroqda boiadi. Qizning dugonalari uzatilayotgan qizni yashirishib, „qiz yashirdi” marosimini o`tkazadi. Kuyov tomondan tanlangan vakil boig`isi kelinni topib olishi kerak. Ana shu “qiz yashirdi” marosimidan so`nggina, bo`lg`usi kelindan vakillar rozi – rizolik olishadi. Dostonida ham ayni marosim o`z aksini topgan: Qadimgi rasmi shunday bo`ladi, Barchinoyini qiz opqochdi qiladi, ...Bir yerda bularni topib oladi”. Ana shu kabi marosimlardan yaxshi xabardor bo`lmasak, Barchinning o`tov tikib, o`z elidan ajralib chiqishini juda jo`n talqin qilishimiz tabiiy, albatta. Aslida esa, “Alpomish” kabi klassik eposda, biror bir detal noo`rin kelmaydi va ularning har biri o`zining chuqur ma`nosiga ega.

Barchinning alohida o'tov tikib, o'z elidan ajralib chiqishi, bu bir tomondan qizning balog'atga yetganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan uning ihota qilinishini anglatadi. "Qiz yashirish", ya'ni turmushga chiqayotgan qizning jamoadan ajratilishi, uning ihota qilinishi, ya'ni har xil noxushliklardan, yomon ko'zlardan saqlash uchun qilingan amaliy harakat bo'lib, Barchinning tepalikka o'tov tikishi esa, ana shu qadim marosimning dostonidagi badiiy ifodasidir. Sochning marosim va folklordagi o'rni, funksiyasi va poetic ko'lemi shu darajada ulkanki, buni birgina maqola yoki tadqiqot doirasida hal etish anchayin mushkul masala. Marosimda magik harakatlar ritual ahamiyat kasb etsa, eposda u badiiy ko'rinishga ega. Buni "Alpomish" dostonidagi "soch siypatar" va shu kabi marosimlarda ko'rishimiz mumkin. Soch, yol-bular ruhga tegishli, birovning sochi yoxud yoliga egalik qilish, uning ruhiga egalik qilish, uni o'ziga tobe etish bilan barobar hisoblangan. Frezer soch qadim marosimlarda eng yuksak mavqeda bo'lganligini, ibtidoiy inson sochni tarash, oldirish, kuydirishorqali tabiatga va ruhga ta'sir qilish mumkin, deb hisoblaganligini ta'kidlaydi. Folkloshunos olim Asqar Musaqulov jahondagi ko'pgina xalqlarning tugilish, nikoh, o'lim marosimlari bilan bir qatorda, soch olinishi ham inson hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri bo'lib, u osmon g'oyasi bilan bog'liq bo'lganligini yozadi, Soch siypatar, umuman, sochning o'rilishi qiz bolaning balog'atga yetganligi, anglatuvchi unsurlardan biri bo'lib, u qadimiy soch magiyasi bilan bog'liq marosimning transformatsiyaga uchragan bir ko'rinishidir. Soch magiyasi birinchi navbatda hosildorlik kultiga bo'lgan e'tiqoddan kelib chiqqan. "Alpomish" dostonidagi "soch siypatar" marosimida ham ana shunday qadim tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Arqon, tayoq, oyna kabilar marosimlarda eng ko'p ishlatiladigan predmetlardir. Ularni birlashtirib turuvchi jihat esa, bu uchala jism, qadim tasavvurlarga ko'ra, ikki dunyo o'rtasidagi chegara, belgini ifodalashidir. Shuning uchun kuyov-kelin yoiiga tashlanadigan arqon, tayoq (baqan) bu ularni bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga qadam qo'yganligini anglatgan. Shuning uchun ham homilador ayol tayoq yoki arqondan hatlamaydi, oqar suvda cho'milmaydi, tunda ko'zguga qaramaydi,

sochini kesmaydi degan odatlar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Oyna aslida suvning atributi hisoblanadi, suv tabiiy xususiyati bilan ko'zguga tenglashtirilgan. Suv esa ikki dunyo o'rtasidagi chegara. Shuning uchun ham suvning barcha din va turli xil marosimlardagi o'rni juda baland. "Kampir o'ldi" marosimi nikoh to'yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba'zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan. "Alpomish" dostonida u kelin, ya'ni Barchinning uyida amalga oshiriladi: "Baxmal o'tovda chimildiq tutib, ko'yov novkarlari hilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir oidi" bo'lib, o'tganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunga ham bir narsa berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o'rib, oldiga dasturxon solib, qo'yiarning to'shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo'yib, xo'p yeb to'yib, ko'yov novkarlarga to'ppi, ro'mol, sarmoy berib, hammasi o'z rasmiqadasini qilib, ko'yov navkarlar chiqib ketdi, bular ham mazgiligijoy-joyiga qarab ketdi". N.P.Lobacheva bu marosim oigan asrning o'rtalarida O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning barchasida uchrashini ta'kidlaydi. Bu marosim bugungi kunda saqlanib qolgan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida dostonida aynan keltirilgani kabi kelin tomonida amalga oshiriladi. Chimildiq tutilgan uyga kirmoqchi bo'layotgan kuyov navkarlarining yoi to'silib, ostonada turgan bir kampir it bo'lib "irillaydi". Odatda, it bo'lib irillaydigan kampir kayvoni, uvali -juvali va obro - e'tiborli, eng muhimi, kelin tomonning eng yaqinlaridan biri bo'lishi kerak.

Kampirning "ulushi" berilgach, kuyov ichkariga kiritiladi. Shundan so'ng "kampir oidi" marosimi boshlanadi. Unda yana uvali-juvali bir kampir kelin-kuyovga solingan o'ringa yosh bolani quchoqlab yotib oladi. Atrofda turganlar "kampir o'ib qoldi", "kampir o'lib qoldi" deyishadi. So'ng kampir tush ko'rganini aytadi:

*Tush ko'ribman, ikki yoshni xush ko'ribman,*

*Oltin beshik buyonda Oltin beshik u yonda.*

*Toq, emas, juft ko`ribman. qo`chqorday ul bir jonida,*

*Basolqi qiz bir jonda, Ko`rkam savlatli,*

*Molu - davlatli, Farzandli, nevarali, chevarali ko`ribman.*

Ba`zi o`rinlarda “o`lgan” kamping tushini ikkinchi bir kampir ta`biri qilib, tushdagi ramzlarning nima ma`no ifodalashini aytib turadi. Bu o`rinda eng avallo, tushga to`xtalib o`tish zarur bo`ladi. Chunki tush ko`pchilik marosimlarda, umuman, inson hayotining barcha nuqtalarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ibtidoiy inson o`zining o`tmishi, buguni va kelajagini ham tushsiz tasavur eta olmagan. Biror bir insonning dunyoga kelishi, kamol topishi, baxtli bo`lishi yoki falokatlarga yo`liqishi tushlarda ayon bo`lgan. Nikoh esa hamma vaqt doim va tug`ilish orasidagi muhim bir vosita, hayot- o`lim- hayot davomiylik siklining boshlanishi hisoblangan. O`lib tiriluvchi ma`budlar haqidagi qadim tasavvurlarga ko`ra, keksa qish yer yuzini tark etgandan so`ng, u yangi - bahor qiyofasida dunyoga keladi. O`lim yo`q ekan, tug`ilish ham bo`lmaydi; qish o`lmasa, bahor tug`ilmaydi. Aslida o`lim va tug`ilish bir holatning ikki ko`rinishi, xolos. Dostondagi “kampir o`ldi” marosimida ham xuddi ana shu narsa, ya`ni bir fasl (sikl) o`rnini, ikkinchi bir fasl olganligi, “kampir o`lib”, yangi oila dunyoga kelayotganligi, mangu davomiylik siklining ramziy ifodasidir. Tabiat faslini keksa kampir qiyofasida tasavvur qilish “Choy momo” , “Sust xotin” marosimlarida o`zining yanada yorqinroq ifodasini topgan. Ma`lumki, o`lib tiriluvchi ma`budlar haqidagi ko`plab miqlar mavjud. Bunday miqlarga xos boigan eng muhim xususiyat ularning tabiat va hosildorlik kultini o`zida mujassam etgani va ularning ko`pchiligi albatta ayol qiyofasida boiganidir. Zero, oila marosimlarining barcha qirralari mavsumiy marosimlarni o`rganish orqali ochiladi. Epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog`liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda eposga murojaat etish tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o`rganganimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to`laroq ochilishi mumkin.

## 2.2. Dostondagi muomala nutqining lingvokulturologik xususiyatlari

Xalq ijodi badiiy tafakkurning eng ilg'or va hayotbaxsh an'analarini o'zida namyon etgan ma'naviy sarchashmadir. Ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, xalq ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ma'naviy – ijtimoiy qiymatga ega. Bu boy ma'naviy ijodda ayol mavqeyi, xalq taqdiri, u mansub bo'lgan Vatan go'zalliklari tasvirlangan.

Dostonda Barchin ruhiyati g'oyat teran aks ettirilgan. Uning baland martaba, baland ruh, baland qadr egasi ekanligi, shu bois o'ziga ham, o'zgaga ham yuksak talablar bilan yondashishi juda ta'sirli ifodalangan. Ayni vaqtda odamni anglash, uning ruhiy holatini o'z vaqtida nozik hisobga ola bilishi asarda ortiqcha izohu tushuntirishlarsiz asosli tasvir etiladi. Barchin – barcha aqlli odamlar singari murakkab tabiatli. U – turlicha vaziyatlarda o'z tabiatining anvoyi jihatlarini namoyish eta oladigan favqulodda timsol. Bir vaziyatda u – mushtipar, chorasiz odam. Otasi Qalmoqqa ko'chmoqchi bo'lib, ularni og'ir ahvolga solganda, yoshgina Barchin onasidan yozg'irib deydi:

*Bul ko`chishing, ena, mening sho`rimdir,*

*Boy otamman biy boboma ne bo`ldi?*

*...Xo`ja kelsa, chiqar murid naziri,*

*Xotin bo`lmasmikin erning vaziri?!*

*Er deganning aqlin olmas bo`lurmi?*

*Aldab-suldab yo`lga solmas bo`lurmi?! (Alpomish,28)*

Yoki yana bir o'rindagi holatga e'tiboqaratamiz:

*...Ot abzallab olib keling enajon,*

*YAna qaytib elni ko`rmagim gumon.*

*Yig`latding, enajon, menday sanamni,*

*Kelib ko`rolmayman maktab jo`ramni,*

*Bunda turmay Qalmoq elga borarsan,*

*Qalmoqlardan ko`p zulmni ko`rarsan,*

*Borib so`ngra ko`p pushaymon qilarsan. (Alpomish, 30)*

Erka, hali turmush sinovlariga duch kelmagan, lekin tabiatan tiniq fikrli qiz kattalarning adashayotganliklarini, ularni bu yo`ldan ayol kishigina qaytarishi mumkinligini tuyadi. Shu bois botinib: “Xotin bo`lmasmikin erning vaziri”, – deya onasiga iddao qiladi. Lekin o`zbekning qizi bo`lgani bois yurak yutib noroziligini otasiga bildirolmaydi. Chunki u ota hamisha ulug` ko`riladigan, padardan kamchilik axtarilmaydigan o`zbek oilasida o`sgan. Shu bois otasining og`ir holatini hazm etolmaydi. Hech qachon shashti qaytmagan Boysarining qalmoqlarga javob berolmay og`ir ahvolda qolganini ko`rib, mas`uliyatni o`z zimmasiga oladi va hech narsadan tap tortmaydigan jasur qiz ekanini ko`rsatadi. Faqat otasiga og`angizdan ortiq ko`rib ergashtirib kelgan qarindoshlaringiz zap maslahat berdi-ku deganday gina qiladi:

*Juda ham gangidi, boy ota, boshing,  
Maslahat berdi-ku qavmi-qardoshing,  
Ko`p yig`lama, jonim otam, darvishim,  
Eshitmagin qarindoshlar so`zini,  
Qarindoshlar bera qolsin qizini!  
...Xafa qilma, ota, menday qizingdi,  
Qo`ya ber alplarga mening o`zimdi...*

Bu o`rinda Oybarchin otasini hammadan aziz ko`ruvchi, uning qiynalishiga toqat qilolmaydigan mehribon va oqila farzand sifatida namoyon bo`ladi. Oybarchin o`rni kelganda po`pisani ham joyiga keltiradi. Uni olmoq payida to`dalashib turgan qalmoklardan tap tortmay balanddan keladi:

*... Meni olarman deb xayol qilmagin,  
Ketgin qalmoq, kelgan yo`ldan qolmagin.  
Mening to`ram, bilsang, Boysin sultoni,  
Unga qurbon menday oyimning joni.*

Mazkur so`zlar o`z qadrini biladigan, bironing zug`umiga osonlikcha bo`y bermaydigan, erkini, ko`ngil istaklarini, sha`nini baland tuta biladigan qiz tabiatini namoyon etadi. U - chinakam o`zbek qizi, olti oylik yo`ldagi qallig`ini “to`ram” deb ulug`laydi unga jonini nisor etmoqqa hozir. Ayni vaqtda



Alpomishga yozgan xatida bu hakda lom-mim demaydi. U faqat xudoning hukmi-fotihagagina ishora qiladi. Barchinning Alpomishga bitgan xati sof o`zbekona: “Oltoychalik yo`lga keldim, to`qson alpga toy-talashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo`lsa, Alprmish kelsin, bo`lmasa javobimni bersin”. Shu uch qatorgina maktubda ham xavotir ham noz, ham iddao, ham istig`no, ham g`urur, ham umid, ham ko`ngil mayli aks etgan. O`zbekning qizi haqiqiy maishiy vaziyat bilan emas, ko`nglidagi holat bilan yashaydi. Birovga atashtirilgan qiz, javobini olmasa, qaerda va qancha bo`lsa ham o`zini boshi bog`liq sanaydi, egali deb biladi. Chukki unga egalisan deyilgan! Chunki u Yaratganni o`rtaga qo`yib so`z bergan! So`zning qudrati! U, ha endi, vaziyat shunday bo`lib qoldi, boshqaning etagini tutishimga to`g`ri keldi demaydi. Deyolmaydi. U o`zini fotiha oldida, atashtirilgani oldvda mas`ul sezadi.

Barchin obrazining nechog`li sog`lom aql, xushyor fikr egasi sifatida tasvirlanganligini ko`rsatadi. Barchin odam ruqiyatini, uning nozikdan-nozik ko`nglini teran anglaydi. Boychibor Qorajon bilan poygaga jo`natilib, salam qirq besh kun bedarak ketganda, ruhi tushib, umidsizlangan Alpomishni: ‘Boshing ko`tar. Ko`ng`irot elning qo`chqori`, – deya umidlantiradi.

“Alpomish” dostonida odam kontseptsiyasi g`oyax puxta belgilangan. Asarda hayotiy vaziyat va qahramon shaxsiyatidan kelib chiqib, har bir obraz tasviriga differenziial yondashiladi, ular zimmasiga imkoniyatidan ortiq yuk orilmaydi. Qalmoqlarning qo`ng`irotlarni siquvi, Barchinga tahdid qilib ularning orini toptayotgani haqida xabar bermoqchi bo`lgan choparlarning nao`zlarini, na otlarini ayab qilgan fidoyiligining ulkanligayu ular erishgan natijaning arzimasligi aks etgan samimiy tasvirlar bu jihatdan, ayniqsa, diqqatga sazovor. Dostonning shu o`rnida odamning odamdan farqi yorqin aks ettirilgan. Choparlar shuncha joniqish, urinish, zo`riqish bilan 90 kunda arang Boysunga yetib kelishadi. Oddiy odamning fidoyiligi, samimiyligi, astoydilligiga qaramay, faoliyatining natijasi o`ziga –oddiyligiga yarasha bo`ladi. Favqulodda ish g`ayrioddiy odam qo`lidan keladi, xolos. G`ayrioddiy xususiyatlarga ega odamning bemalolliigi, ba`zan, hatta tepsa- tebranmaslik darajasida

og'irkarvonligi sababi shunda. Chunki u boshqalarning ming urinib qilolmaganini bir zarb bilan hal etishiga ishonadi. O'ziga ishonch bunday kishida og'irlik, qanoat tuyg'ularini shakllantirgan. Dostonda shu jihatlar g'oyat nozik hisobga olingan. Dostonda Boybo'ri bilan Boysarilarning o'zaro munosabatlari, kelishmasdiklari, johilliklari, bemexrliklari va bu holatning sabablari haqida alohida to'xtalinmagan. Ammo asardagi yondosh tasvirlar bilvosita shu xulosani chiqarishga xizmat qiladi.

Aslida folklorshunoslar qahramon tabiatining shu jihatlarini dunyo eposidagi o'zga obrazlarda davom etayotganligini topsalar ma'qul bo'lardi. Badiiyat uchun syujetning yaqinligi emas, balki tasvirdagi muvoziylik, yovuqlik muhim. Chinakam tipologik belgilarni shundan ko'rsa bo'lardi. Muhabbat iztiroblari, adolat uchun kurash, firibgarlarniig qilvirliklarn, yovuzlikning chegara bilmas andishasizligi dunyoning hamma joyida ham bir xil mohiyatga ega. Hamma odamlarning tug'ilishi, yashashiyu o'limida umumiylik bo'lganiday, ularning hayot yo'llarida, sevgi sarguzashtlarida, adolat uchun kurash jarayonlarida o'xshashlik bo'lishining hech bir g'ayri tabiiy joyi yo'q. Syujetdagi o'xshashlikdan ko'ra ruhiyatdagi o'xshashlikni tadqiq etish mushkulroq, ammo juda ham foydali.

O'zbekning pahlavoni ilmoqli gapni ko'p ham elamaydi. Unga kinoya qilish emas, balki to'qqiz pulday qilib, tugib berganda anglab olsa ham katta gap. Alpomish o'zini nar-moda deyilmish haqoratga daxldor ko'rmaydi, bu sifatni o'ziga aslo yaqinlashtirmaydi. Shu bois singlisiga yuqoridagi so'roqni beradi. Bu so'roq esa, nomusli kishi uchun avvalgi holatdanda og'irroq.

Qaldirg'ochning akasiga javobida o'zbek ayoliga xos eng nurli jihatlar yorqin namoyon bo'ladi:

*Har kim o'z elida bekmi, to'rami,*

*Nar-modalar sendan kamroq bo'lami?!*

*Mardning yori toy-talashda qolami?!*

*Mard bo'lib maydonli kunda yurmagan,*

*Yilqichidan bedov siylab minmagan,*

*Olmos po`lat belgan qayrab cholmagan,  
Ot asbobin shaylab Qalmoq bormagan,  
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan  
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,  
...Nar modalar sendan ortiq bo`lami?  
Bu so`zimni nega og`ir olasan,  
Yoring ketsa, qanday elda yurasan?*

Tirik yurmay, aka sen ham o`lasan.... Ayol qalbini o`rtagan, uning vujudini junbushga keltirgan nomus tuyg`usi alangasi uncha-muncha bemalollikni, loqaydlikni, erinchoqlikni olovday kuydirib yuboradi. Ammo Alpomish oddiy odam emas. Shu sabab u haliyam bu gaplarni unchalik anglamaydi, u qadar xijolat bo`lmaydi. Singilning shuncha achchiq ta`nalaridan so`nggina bu yirik odamni Qalmoqqa nimada borish muammosi sal bezovta qilganday bo`ladi: “Yayov boramizmi esa” Alpomishning bu bo`lmag`ur mulohazasi Qaldirg`ochda qanday munosabat uyg`otganini tasavvur etish mumkin: “To`qson to`qay yilqing bor, yayov borib mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalni olsang, yilqiga Qultoyning qoshiga borsang, ko`nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang”. Qaldirg`ochning bu qadar batafsil gapirishiga sabab barcha yirik, qoruvli, pahlavon odamlarda bo`ladigan tepsa-tebranmaslik, kamhafsasalik sifatleri akasida qay darajada mavjudligini bilganidan. Ijkilab tushuntirmasa, yana nimanidir qilmay yoki noto`g`ri qilib qo`yishidan xavotirlanganidan. Shu bois “egar-abzalni olsang”, deb ham ta`kidlaydi. Qultoyning qahrli vajohati, ot so`ragan Alpomishni so`kib, urishi bolaning ahvolini bilganidan va hukmdordan topshiriq olganidan. Biydan pishang olgan Qultoyning Hakimbekka degan gaplari uning nechog`li boy hayotiy tajribaga egaligini, yosh, sodda yigitning yurag`iga g`ulg`ula solish yo`llarini qanchalik bilganligini ko`rsatadi: O`zbekning odobi dostonida shu tarzda juda yuksak maqomda namoyon bo`ladi. Quliga qarata: “O`zimga yor, bobo, senga xizmatkor” keltiraman deyish faqat o`zbekning o`yiga kelishi mumkin. Chunki bizda katta, ulug` yoshli odam – har narsadanda katta va ulug`.

Uni e`zozlash, hurmatlash lozimligi kunning yorug`ligi singari tabiiy hol. Hakimbekning tog`day gavdasi va chumchuqnikiday yuragi asarda go`zal bir mutanosiblikda tasvirlangan. Alpomishni qo`rqoqdan ko`ra sodda, bayov go`l deyish to`g`riroq bo`ladi. Dostonda Qultoy tasviri alohida e`tiborga loyiq:

*Bu so`zni aytib mardning aqlin oladi,*

*Uch-to`rt tayoq qayqaytirib soladi,*

*Egan tayoqlaring yilqi bo`ladi!*

*Hakimbekning ko`zi alanglab qoladi.*

*Tayoq yegan bekda qolmadi toqat,*

*O`ldirar qaytmasam, deydi vallamat.*

*Bul bobosi ko`p siyosat qiladi,*

*Juda aylantirib ancha uradi,*

*Bobom urdi dedi, qaytib jo`nadi.*

Dostondagi bir tasvir g`oyat diqqatga sazovor: Boychiborga mingan Hakimbek tamomila o`zgaradi. Haligina ovsarbashara, befarq, qadrbilmas bo`lgan o`spirin birdaniga yigitga aylanadi. Negaki, unda endi mas`uliyat tuyg`usi paydo bo`ladi. U endi kimlarning oldidadir javobgar ekanini, uning biror ish qilish yoki qilmasligi o`zgalar taqdiriga ta`sir etishini anglab yetadi. U sanoqli daqiqalarda ulg`ayib qoladi. Shu bois hozirgina dam tayog`ini yeb, dam tagiga bosib yotgani Qultoyni astoydil “bobom” deb, yaqindagina zug`umidan qayga qochishni bilmay yurgani Qaldirg`ochni “munglug` singlim” deb ardoqlaydi. Mas`ullik tuyg`usi kishini tez ulg`aytiradi. Qaldirg`ochoyim ham dostonda oddiy bir obraz emas, balki qahramon, yani Alpning homiysi, iloha sifatida gavdalanadi. Buni biz Alpomishning Dobonbiy bobosidan qolgan qo`riqni uch marta tashlab, uch marta ham o`zi uncha ko`ngli to`lmagan tulporga tushganda, Qaldirg`och uning oddiy ot emas, ilohiy tulpor ekanini birinchi bo`lib aytganida ham ko`ramiz: “Xafa bo`lma, bu oting balki tulpor bo`lib chiqar, yomon dema bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko`p yerlarni ko`radi. Maqsadini haqdan talab qiladi” (Alpomish. 81 ) , – deb akasining ko`nglini ko`taradi. Alpomishning otiga Boychibor nomini bergan

ham Qaldirg`ochoydir: Qulli bo`lsin, akajon, arg`umog`ing Yomon dema, aka, Boychiboringni. (Alpomish. 82) Boychiborning ilohiy tulpor ekanligini birinchi bo`lib payqagan, uni egarlashda ko`maklashgan:

*Oy Qaldirg`och tortdi otning belidan,*

*Sirti ipak, ichi mayin ayildi.*

Qaldirg`och oddiy ayol emas, Alpomishning ilohiy homiylaridan biri ekanligini ko`rsatadi. Zero, alpga singillik qilish, Alpomishdek alpning tulporini egarlash, uni o`q o`tmaydigan, suvda cho`kmaydigan, olovda kuymaydigan qilib kiyintirish – ya`ni qahramonni ilohiy asbob-anjom va ot bilan taminlash homiy obraz haqidagi tasavvurlarning qahramondagi badiiy ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, har bir qahramon faoliyati epik ijodda o`z vazifasiga ega. Ular ayri-ayri holda, keng tahlil etilmog`i lozim. Bunday obrazlarning talqini, badiiy asar va undagi syujet hamda motivlarning mazumunini yanada chuquriroq anglashda bizga yaqindan yordam beradi.

## **2.3. “Alpomish” dostonidagi qahramonlar nomlari (antroponimlari)da milliylik ifodasi**

XX asrning 80-yillariga kelib, uning tarkibida turkiy qatlamni o`rganishga e`tibor berildi. Masalan, G`.Sattorov “O`zbek ismlarining turkiy qatlami” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Bu olimning shu mavzuga doir bir necha maqolalari ham e`lon qilindi. Bu ishlarda quyidagi haqqoniy xulosalarga kelingan:

“O`zbek antroponimiyasining milliy o`ziga xosligini ikki lisoniy material ta`minlaydi. Bular: tub turkiy nomlar va o`zbekcha ismlardir. Milliy-lisoniy ruh, ayniqsa o`zbekcha nomlarni ijod qilishda yorqin namoyon bo`ladi. Tub turkiy qatlamga mansub nomlarning aksariyati appelyativ ma`nosi aniq sezilib turgan nomlardir. Shunga qaramasdan ismlarning bu qatlamida ma`nosigako`ra uch xil nomlarni uchratish mumkin: 1) ma`nosi aniq sezilib turuvchi nomlar; 2) ma`nosi hozirda qorong`ilashgan ismlar; 3) o`lik ma`noli nomlar.

Aksariyato`zbekcha ismlar birinchi va ikkinchi guruhga mansubdir. Turkiy qatlamga mansub nomlarni leksik-semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin: 1) ism-bag`ishlovlar; 2) nom-izohlar; 3) ism-tilaklar...”. Shuni inobatga olish lozimki, turkiyshunoslikda kishi ismlari tarkibida umumturkiy qatlamni tadqiq etish ancha qadimiy tarixga ega. Jumladan, boshqird olimi A.G.Shayxulov tatar va boshqird ismlarida turkiy qatlam tahliliga oid nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilgan (1978), keyinchalik uning xuddi shu mavzuga oid o`quv qo`llanmasi nashr ettirgan edi. V.U.Maxpirov esa “Devonu lug`atit turk” asaridagi kishi ismlariga bag`ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Xuddi shunday kuzatishlar o`zbek ismshunosligida ham olib borilgan edi. Atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan bittasini ajratish uchun qayta nomlangan ikkilamchi nomlardir. Atoqli otlar bilan obyektiv olamdagi narsalar o`rtasidagi aloqa so`zlovchi tomonidan o`rnatiladi. Agar ma`lum bir atoqliot so`zlovchi tomonidan muayyan bir obyektga bog`lanmasa, u hech narsa

bildirmaydi.

“Alpomish” dostonidagi atoqli otlarni ma`nosiga ko`ra ikki xil nomlarni uchratish mumkin:

**1. Ma`nosi aniq sezilib turuvchi nomlar.** Bunda atoqli otlarning ma`nosi aniq sezilib turadi. Masalan: Burungi o`tgan zamonda, o`n olti urug` *Qo`ng`irot* elide *Dobonbiy* degan o`tdi. *Dobonbiydan Alpinbiy* degan o`g`il farzand paydo bo`ldi. Alpinbiydan tag`i ikki o`g`il paydo bo`ldi: kattakonining otini *Boybo`ri* qo`ydi, kichkinasining otini *Boysari* qo`ydi. Boybo`ri bilan Boysari – ikkovi katta bo`ldi.

**2. Ma`nosi hozirda qorong`ilashgan ismlar.** Atoqli otlarning ma`nosi hozirgi kunga kelib bir oz xiralashgan, ma`no anglahilishi qiyin bo`ladi. Masalan: Qalmoqshohning *Tovka* degan qizi bor edi. (254-bet). Alpomish aytdi: – o`g`riningpiri hazrati *Joltong* deguchi edi, hazrati Joltonga sirina qolgin (264-bet).

“Alpomish” go`yo o`zbeklarning necha ming yillik hayotining, turmush tarzining muxtasar bir qomusidek tuyuladi. Buni qarangki, dostondagi personajlarning ismlari sof turkiy bo`lgani barobar, ajdodlarimizning ism qo`yish tamoyilini ham ko`rgandek bo`laman. O`g`il bolalarga katta niyat bilan ulug`, ulkan narsa yoki kuchli mavjudotlarning otlari qo`yilgan. Yoxud yosh jonivorlarni anglatuvchi ismlarni tanlashgan. Negaki, har qanday jonzotning kichigi “shirin”, yoqimli ko`rinadi. Dostonda Olpinbiy, Dobonbiy, Boybo`ri, Boysari degan turkiy nomlar uchraydi. Olpinbiy asli bahodir, polvon degan ma`noni anglatuvchi “alp” va katta ma`nosini beruvchi qo`shimcha “mon”dan tashkil topgan, “Alpmon” so`ziga qo`shilgan “biy” esa, turkiy qavmlarda “qozi” yoxud “oqsoqol” ma`nolarini bildirgan. Dostonda keltirilishicha, dunyodan bor-yo`g`i to`qson nafargina “alp” o`tgan, shularning biri Alpomishdir. Dobonbiy “dev” va “mon” o`zaklaridan tarkib topgan. “Ulkan dev” degani. (“Dev” o`zagi tovush o`zgarishiga uchrab “dob” tarziga kelgan, “mon”ning “m” tovushi talaffuzda tushib qoldirilgan). “Ko`kaman” so`zida ham shunday holatni ko`rish mumkin. “Ko`ka” so`zi ko`ksdan olingan bo`lib, ko`krak, yurak ma`nolarini

bildiradi. Ko`kaman (ko`kamon) “yuragi katta” degani. Alpomish so`zini ham “alp”, “mon” va “mish” kabi o`zak hamda qo`shimchalarga bo`lish mumkin. Uning asli ismi deb berilgan “Hakimbek” esa chorvador turkiy qavmlar islomni qabul qilganlaridan keyin baxshilar tomonidan “tahrir etilgan” variant. Ehtimol, dostonning qadimgi variantlarida Alpomishning ham asli nomi sof turkiycha bo`lgandir. Qizlarga ko`rkam, suluv parrandalarning otlarini qo`yish odat bo`lgan. Qarang, Boysarining qizi Barchin, Boybo`riniki esa Qaldirg`och. “Barchin” so`zi “bovurchin” degan so`z bilan bog`liq, jigarrang, chiroyli muannas o`rdak, degani.

Alpomish” dostonida bayon etilgan davr qabila, urug`chilikdandavlatchilikka o`tilayotgan payt bo`lgan. Endigina davlatchilikning ma`lum bir unsurlari ko`zga tashlanadi. Bu davrning asosiy xususiyati –har bir qabila, urug` o`zini saqlab qolishga intilgan. Kuchli, mard va qo`rqmas yigitlarga qabilasi, urug`ini saqlab qola oladigan kuch sanalgan. Ta`kidlash kerakki, qabila, urug`ning birligi, yaxlitligi ularning yashab qolish omillaridan sanalgan. Shu bois, “Alpomish”ning g`oyaviy mazmunini urug`ning yaxlitligi, birligini saqlab qolish, yovlarga qarshi kurashga to`g`ri kelganda asqotadigan tengsiz kuch, qudratni ulug`lash tashkil qilishi tabiiy hol.

Dostonda ishlatilgan “azamat” so`zi bu hodisani yorqin ochib beruvchi o`ziga xos kalit, deyish mumkin. “Alpomish” dostonining 22-sahifasida “Azamat bosh berar dinning yo`liga”, degan satr kelgan. Bu yerdagi “azamat” so`zi turkiycha bo`lib, muayyan mazmunni anglatuvchi atamadir. (Chorvador turkiy qavmlar islomni qabul qilgunlariga qadar bu satr boshqacha, balki “Azamat bosh berar yurtning yo`liga” kabi variantda bo`lgandir). Turkiy qavmlarda o`g`il bolalarni yoshiga qarab quyidagi turkumlarga bo`lishgan: 10 dan 20 yoshgacha bo`lganlarni “bo`z bola”, deb atashgan. Yaqin-yaqinlargacha balog`atga yetgan yigitlar uylanish oldidan “bo`z bola”larni chaqirib, ziyofat berish hodisasi uchrardi. 20 yoshdan 30 gacha bo`lganlarga “azamat”, deyilgan. Azamatlar urug`-qabilani, qavmni yovdan himoya qilish uchun doimo tayyor turishi lozim bo`lgan. Timsolli aytganda, ular zahiradagi, ammo har lahzada



chaqiriqqa tayyor turuvchi askar hisoblangan. Hali-haligacha yaqin kishingizning o`g`li bo`y cho`zib, ko`zga tashlanib qolgan bo`lsa, “E, azamat bo`lib qolibdi-ku!”, deymiz. O`spiringa aytilgan bu daldaning zamirida “Xayriyat, azamatlarimiz safiga yana biri qo`shiladigan bo`ldi”, degan qoniqish hissi ham yotgan bo`ladi. 30 yoshdan 40 yoshgacha bo`lganlarni “er yigit”, deyilgan. Bu guruh, asosan, oilasini parvarishlash, farzandlarini el-yurtga munosib qilib tarbiyalash bilan shug`ullangan. 40 bilan 50 yosh orasidagilarga “qush og`asi”, deyilgan. “Qush” so`zi qassoblik bilan bog`liq bo`lgan “kush”dan batamom farq qiladi. “Qush” bir ota-onadan tarqalgan aka-uka, amakilarning oilalari majmuini bildirgan. “Qush og`asi” mana shu kichik ijtimoiy guruhning boshlig`i yoki obro`li a`zosi bo`lgan. Chorvador qavmlar keng yaylovlarda o`tov tikib o`rnashganlar, o`sha joylarda o`t-o`lanlar kamaygach, boshqa yerlarga ko`chib o`tishgan. Tanishlar bir-birlarini uchratib qolishganda, “Qushxonanglar qaerda joylashgan?”, deb so`rash odat bo`lgan. 50 yoshdan 60gacha bo`lganlarni “o`tog`asi”, deyilgan. Ular bir necha “qush”larga boshchilik, rahbarlik qilishgan. Hozir ham bu yoshdagi kishilarga “o`tog`asi”, deb murojaat qilish hollari Toshkent va uning atroflarida uchrab turadi. Jamiyat a`zolarining bu tarzda guruhlanishi va ularga yuklangan ijtimoiy vazifa chorvador turkiy qavmlarda qadimdayoq, sodda bo`lsa-da, ijtimoiy tizim shakllanganini ko`rsatadi.

Boybo`ri va Boysarilarning ismlari etimologiyasi, xozirgi o`zbek tili nuqtai nazaridan “boy” ma`nosida emas, balki qadimgi turk tili ma`nosida - “qabila, urug`”. SHunday qilib, Boybo`ri (Boy + bo`ri) va Boysari (Boy + sari) qabilaviy bo`lib, so`zma-so`z tarjimasini - “bo`ri” qabilasi boshlig`i, “sari” qabilasi boshlig`i ma`nosini bildiradi. Tarixdan ma`lumki, turk qabilalarining (turkutlar) ilk birlashmalari dohiy Ashina tomonidan 545 yili amalga oshirilgan<sup>16</sup>. Uning ismi syanbiy (qadimgi mo`g`ul) tilida “Olijanob bo`ri” ma`nosini anglatadi<sup>17</sup>. Turkutlarning asosiy totemi bayroqlariga zar bilan

---

<sup>16</sup>Qarang. O`zbekiston tarixi. — Toshkent, 2005. T.; Fan, 59-bet

<sup>17</sup>Iso Jabborov. O`zbek xalq etnografiyasi. — Toshkent. 2001 yil, 18-bet

tikilgan oltin bo`ri hisoblanadi. Boybo`rining zakot haqidagi iltimosini Boysariga 14 ta elchi (mahram) yetkazadi, ularning ko`kragida qo`tosining oltin tasviri bor edi. Boybo`ri (Alpomishning otasi)ning elchilari erkaklik, hosildorlik timsoli bo`lgan qo`tos tasvirini bejiz ko`kraklariga tushirishmagan. Doston boshida elchilar Boysari (Barchinoyning otasi) jallodlari qo`lida halok bo`lishsa-da, doston yakunida Alpomish sevgilisi va uning otasini qalmiqlar asirligidan ozod qiladi. Surhayl kampirning (Alpomishning ashaddiy dushmanlaridan biri) o`g`illaridan ba`zilarining ismi ham qadimgi totem va astral kulturning sarqitlaridan xabar beradi. Ko`kqashqa (Ko`k+qashqa), Boyqashqa (Boy+qashqa) zoomorf antroponim bo`lib, so`zma-so`z “ot qabilasi”dan degan ma`noni anglatadi. Ko`kaman (Ko`k+man) - “qo`y vabilasidan”. Bosh qahramonlarning tug`ilgan joylari Boysun(Boy+sun) “butun qabila” ma`nosiga muvofiq keladi. Bu syujetning dramatik yechimiga to`g`ridan- to`g`ri bog`liq. Aynan kelishmovchilikdan so`ng Boysari o`z qavmini qalmiqlar yurtiga boshlab ketgach, butun qabila ikkiga bo`linadi, ular vataniga, ya`ni Boysunga qaytgach, yana bir butunga aylanadi. Alpomish singlisining ismi Qaldirg`ochoyim sadoqat, qondoshlik aloqalarining mustahkamligini ifolaydi, zero o`zbek xalq poeziyasida qaldirg`och aynan shu sifatlar ramzidir. Aynan singlisi tufayli Alpomish qallig`iga tahdid solayotgan xavf haqida bilib oladi. Va aynan Qaldirg`ochoyim Alpomishni uyaltirib, Oybarchin va uning otasiga yordam berishga chorlaydi, o`z baxti va xalqning birligi uchun jasorat ko`rsatishga undaydi. Suqsuroy antroponimi (Oybarchinga nisbatan qo`llanilgan epitet hamda uning ismi so`zma-so`z “Suqsur-Oy”) ism bekasining chiroyini ta`kidlaydi. Bosh qahramon Alpomish ismi ikkita so`zdan tuzilgan: alp+mish (yoki manash, misha). Alp polvonni anglatadi: mil (sansk. mesa) - astronomik Hamal burji. SHunday qilib, qahramonning ismi bahodir - qo`y, Hamal burjida tug`ilgan bahodir ma`nosini bildiradi. Qo`y obrazi O`rta Osiyo ko`chmanchi chorvador xalqlari san`atida asosiy obrazlardan biri bo`lib, hali-hanuzgacha qozoq, qirg`iz va qoraqalpoqlar naqshu nigorlarida saqlanib qolgan. Lekin syujet rivoji davomidagi ko`plab epizodlar, boshqacha, ya`ni

nikohning va qarindoshlik rishtalarining ancha avvalgi shakllarini tasvirlaydi. Qalmoqshohning jallodlari dehqonchilik nimaligini bilmaydigan xalqi qalmiqlar yurtida butun dalalarni payhon qilganligi uchun Boysarini ushlashganda, u qo'yib yuborishlarini, buning uchun butun boyligini berishga tayyor ekanligini aytadi. Shu asnoda u agar: "Molim yetmasa beray Barchin qizimni", deydi. Ya'ni bu yerda u qiziga boyligining bir bo'lagi sifatida qarashligi ta'kidlanadi. Lekin dostonning bosh qahramoni Barchinoy nozik-nihol, hijron azobida qaddi bukilgan sohibjamolni emas, balki polvon qizni ("alp qiz") namoyon qiladi. Ota-onalari bilan majburan qo'noq topishgan uzoq qalmiq yurtida qiz unga sovchi bo'lib kelgan 7 ta o'zga yurtlik polvonlarning do'q- po'pisalarini nazar-pisand qilmaydi. Aksincha, unga tahdid qilgan birovini osongina yelkasi osha iring'itib yuborib, yelkasini yer tishlatadi va yengilgan polvonning qorniga tizzasini bosib, qolgan polvonlarga o'z shartlarini qo'yadi: unga 6 oy muhlat berishlarini va u bu vaqtda unashtirilgan yigiti bilan bog'lanib, uning xohish-istagini bilishini aytadi. Barchinoy obrazi matriarxal xarakterdagi obraz. yettita qalmiq polvonlar esa Barchinoyning huzuriga kelib unga: "O'rtada jovlik xotinli bo'lib qolaylik" yoki "O'zbek qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik", deb o'z shartlarini qo'yadilar. Qalmiq bahodiri Qorajon (keyinchalik Alpomishning do'sti) uni o'zbek qiziga unashtirish uchun sovchilikka borgan onasidan: "Tulki bo'lib kelyapsanmi, bo'rimi?" deb so'raydi. "Bo'ri" so'zining ma'nolaridan biri o'g'il ekanligini nazarda tutgan holda, yuqorida keltirgan gapning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: sen o'g'lingni unashtirdingmi yoki ikki qo'lingni burningga tiqib kelyapsanmi, ya'ni erkaklik ustun keldimi yoki ayollik? Dostondagi ko'pqatlamli mifologik fikr matnning analogiya, ko'pma'nolilik kabi ma'nolarga to'yinganligida ko'rinadi. Zero, uzoq yo'l yurib kelgan Alpomish tun tushishi oldidan, yorug'likka ko'zi tushib, mozoristonda yotib qolishga qaror qiladi: "Kech qolgan odam mozorotda yotadi". SHu ma'noda u "ahli quburlarga" yotib qolish uchun ruxsat so'rab murojaat qiladi. Lekin yorug'lik ichidan chiqib kelgan odam avvaliga unga rad javobini beradi: "Bu yerda otingizga joy bor, o'zingizga joy yo'q". Ushbu sahnada

ajdodlarimizning ibtidoiy udumlari turli mifologik qatlamlar bilan o`ziga xos tarzda chog`ishib ketgan. Ma`lumki, homiy ajdodlarimizning marosimlari (dafn va ehson marosimlari) erta diniy shakllardan biri bo`lib, uning kelib chiqishi musulmonlikdan ancha oldingi davrga borib taqaladi. Rad javobining ma`nosi esa, ajdodlar ruhi (ularning qo`nim topgan joylari mozoriston) odam o`rniga otni tanlashdi. Ko`plab qadimgi chorvadar xalqlarning dafn marosimlarida otning ahamiyati alohida ma`no kasb etadi.

Surxayl degan qo`shma so`z “sur”, ya`ni, bezbet va “xayl”, ya`ni, “ahli” so`zining o`zgargan shakli (deylik, mumtoz she`riyatimizda “oshiq ahli” aksariyat hollarda “oshiq xayli” tarzida qo`llangan!) – shu ikki so`zdan tarkib topgan. Demak, “Surhayl” – bezbet ahlidir. “Maston” esa, makrni “makkor”, “ayyor”, “tulki”, “jodugar”, “tovlamachi”, “bozigar” kabi so`zlardan ham kuchliroq ifodalovchi so`z bo`lib, “mast qiluvchi makkor” demakdir.

Ma`lumki, “ko`kaldosh” so`zining tub lug`aviy ma`nosi “bir onaning ko`kragini emib katta bo`lgan ikki go`dakning biri” demakdir. SHunday ekan, Surxayl mastonning to`ng`ich o`g`li kimning ko`kaldoshi? Dostonda bu xususda lom-mim deyilmaydi. Ko`kamanning uch ukasining “Ko`kqashqa”, “Boyqashqa”, “Toyqashqa”ligi ham bejiz emas, albatta. Ular ham shohlikka baayni otning qashqasidek ko`zga ayon tashlanib turgan da`vogarlar: birining “Ko`kaldosh” bilan “Ko`kaman”ga o`xshab “ko`k”i bor, birining boyligi bor, yana biri hali toy, “Toychixon” bo`lmasa-da, har qalay, “toy”! Oltinchi o`g`il “Qo`shquloq” deb ataladi. yetti o`g`ilning faqatgina kenjasi Qorajondagina “jon” bor, ya`ni, u olti akasi, xususan, Qo`shquloqdek “jonsiz” emas! Bunda ham tagma`no bor, albatta. Chunki Qorajon, “qora xalq”, “avom”ning timsolidir. Turkiy tilimizda “qora” so`zi rang-tusni emas, “katta” ma`nosini anglatishi ko`pchilikka ma`lum: qorahoniylar, qoraxitoylar, Qorabotir, qoramol va hakoza. “Katta xalq”ning “jon”i bo`lishi tabiiy, albatta. Qanaqangi makr saltanatida yashamasin, modomiki odam bolasi “aqlli jon”, “ongli mavjudot”, “tafakkur sohibi” sifatida yaratilgan ekan, qora xalq ichidan ertadir-kechdir joni, ya`ni, dilda dardi, iymoni-vijdoni bor kiroyi shaxs, mardi maydon qahramon

chiqishi tabiiy.

Folklorshunos Jabbor Eshonqul o'zining "Alpomish" dostonida ayollar obrazi" nomli maqolasida dostonidagi ayollar obrazi va ularning ismlaridagi o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratadi. Jumladan, "Alpomish" dostonida Alpomishning onasining oti Kuntug'mish. Bu nom shunchaki oddiy nom emas. Bu ism ajdodlarimizning qadim tasavvurlari bilan bog'liq. Kun, ya'ni quyosh qadimda muqaddas sanalgan. Quyosh qadimda tangri maqomidagi barcha tiriklikning homiysi hisoblangan<sup>18</sup>.

Til butun xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan tunganmas xazinasi. Tildagi har bir so'z va so'z qiymatini moddiy xazinalar, moddiy boylik bilan o'lchab ham, baholab ham bo'lmaydi. Masalaga xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan «Alpomish» dostonidagi har bir ibora, maqol, matal kishi havas qilgudek. Darhaqiqat yashash tarzimiz, qadriyatimiz, ma'naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, org'aki adabiy tilimiz tarixi bo'lmish "Alpomish" dostonining sehrli, jozibali, maftunkor, shirador tili, ijro usulio'quvchini sehrlasa, sehrlagudek. Doston tilining bu qadar sehrli bo'lishini esa o'z navbatida xalq tili ta'minlagan ko'rinadi. Xalq tili esa tunganmas boyliklar bulog'i, misli bir xazina

---

<sup>18</sup> Qarang. Jabbor Eshonqul. Alpomish dostonida ayollar obrazi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. — Toshkent: 4/1999. 16-17-betlar.

## **II bob bo`yicha xulosa**

1. “Alpomish” dostonida xalqimizning muayyan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma`naviy holati, xatti-harakatlari, rasm- rusmlari, urf-odatlarini, doston qahramonlari nomlari, voqealar kechgan joy nomlari o`z ifodasini topgan. Baxshi dostonni kuylar ekan, doston voqeligini, ya`ni epik syujetni bayon qilish jarayonida o`zbek tilining boy xazinasidan foydalanadi. “Alpomish” dostonida qo`llanilgan o`zbek tili leksikasining turli mavzuviy guruhlariga kiruvchi so`z va boshqa til birliklaridan ma`lum bir maqsadda samarali foydalanilgan.

2. “Alpomish” dostonida onomastik birliklar ham keng qo`llanilgan bo`lib, ularning nomlarini alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Ishda onomastik qatlamga kiruvchi antroponimlar alohida tadqiq etildi. Ularning dostonlar tilida tutgan o`rni, qaysi til birligi ekanligi (geneologik qatlamlari), leksik-semantik xususiyatlari o`rganildi.

3. “Alpomish” dostonida entografizmlar keng qo`llanilgan bo`lib, ular xalqning madaniyati va milliyligini aks ettiruvchi omil sifatida o`rganildi.

### III BOB . “ALPOMISH” DOSTONIDAGI TASVIRIY VOSITALARNING LINONIY VA MADANIY XUSUSIYATLARI

#### 3. 1. “Alpomish” dostonidagi o`xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari

O`xshatish adabiyotshunoslikning ham, tilshunoslikning ham o`rganish obyekti, har ikkalasida badiiy tasviriy vosita sifatida baholanadi. Shuning uchun ham o`xshatishlar yuzasidan filologiya ilmida juda ko`p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, o`zbek tilshunosligida M.Mukarramov, R.Qo`ng`urov, A.Rustamov, N.Mahmudov singari taniqli olimlarning bu boradagi tadqiqotlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, B.Umurqulov, R.Suvonova, M.Yoqubbekova, I. Yormatov, M.Yo`ldoshev, G.Jumanazarovalarning monografik ishlarida tasviriy vositalarning biri sanalgan o`xshatishlarga keng o`rin berilgan. O`xshatish masalasi xalq poetik ijodi namunalarini lingvistik aspektda o`rgangan tilshunoslarning ishlarida ham u yoki bu darajada yoritiladi. I.Yormatov “Alpomish” dostoni poetikasini o`rganish jarayonida o`xshatishlarning tarkibini uchta birlikdan tashkil topganini ta`kidlab o`tadi. Bular: o`xshatilmish(subyekti); o`xshovchi (etalon); o`xshash (aktant).Shuningdek, o`xshatishvositasini ham bu uch birlikning yordamchi uzvi sifatida ko`rsatadi: “O`xshatishuchta asosiy o`xshatilmish(o`xshovchi va o`xshamish) hamda bitta yordamchi (o`xshatishvositasi) uzvlaridan tashkil topadi”<sup>19</sup>, degan xulosani ilgari suradi.O`zbekxalq qo`shiqlarining lingvopoetikasini maxsus o`rgangan M.Yoqubbekova esa o`xshatishlarning struktural-kompozitsion, leksik va grammatik, badiiy-estetik (poetik) tabiatini izchil yoritishga harakat qiladi. Olima o`zining monografik ishida olimlarning o`xshatishlar tarkibi (uzvlari) haqidagi fikrlarini keng sharhlaydi va ularga o`z munosabatini bildiradi. Uning fikricha,o`xshatish uzvlari quyidagicha bo`lishi kerak: asos, timsol, vosita, belgi .Ko`rinadiki, olima o`xshatishuzvlarini to`rtta turga ajratgan. Ularning birinchisi

---

<sup>19</sup>Yormatov I. O`zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi. Filol. fanlari dokt... diss. avtoref. -- Toshkent, 1994, 31-35-betlar.

o`xshatish asosiga, ikkinchisi o`xshatiluvchi narsa (timsol) ga, uchinchisi o`xshatish vositasiga, to`rtinchisi o`xshatish belgisiga to`g`ri keladi. O`xshatishni obraz yaratishning eng sodda usuli deyish mumkin. Chunki unda bir-biriga o`xshatilayotgan narsa va predmetning nomi qatnashadi. Bunda ularning biri o`xshatilayotgan predmetni, ikkinchisi o`xshatish obrazi bo`lgan predmetni anglatadi. Aynan ana shu holatni boshqacha nomlasak, biri o`xshatishobyektini, biri esa o`xshatish obrazini bildiradi. O`zaro o`xshatilayotgan predmetlarni bu jarayonda bog`lab turadigan uzv o`xshatmaga beriladi. O`xshatishlarga bag`ishlangan tadqiqotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, olimlarning o`xshatishlar uzvi haqidagi qarashlari bir xil emas. Professor N.Mahmudovning monografik ishida o`xshatish uzvlari quyidagi to`rt turga bo`linishi qayd etilgan: o`xshatish subyekti; o`xshatish etaloni; o`xshatish asosi; o`xshatishning shakliy ko`rsatkichi<sup>20</sup>. A.Rustamov va I.Yormatov singari tilshunoslar birinchi uzv - o`xshatish subyektini o`xshatilmishdeb nomlasalar, M.Mukarramov o`xshatuvchi obyekt, M.Yoqubbekova o`xshatishasosi nomi bilan ataydi. O`xshatishning keyingi uzvlari nomida ham shunday noo`xshashliklar kuzatiladi. Bu haqda ilmiy manbalarda batafsil fikr yuritilgani bois ular xususida to`xtalmaymiz.

Filologiya, shu jumladan, tilshunoslik ilmida o`xshatishlarning bir necha tasniflari amalga oshirilgan. M.Mukarramov, M.Yo.,ldoshev, M.Yoqubbekova, D.Xudoyberganova, G.Jumanazarova singari tilshunos olimlarning tasniflari e`tiborga loyiq. Ular o`xshatishlarni poetik tabiatiga ko`ra, qo`llanishiga ko`ra, tuzilishiga ko`ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga ko`ra tasnif etadilar. Xalq dostonlari tilida qo`llanilgan o`xshatishlar xususida izlanishlar olib borgan olimlar ularni kelib chiqishiga ko`ra tasnif qiladilar, ya`ni: 1) an`anaviy o`xshatishlar; 2) xususiy-muallif (favqulodda) o`xshatishlari. Quyida “Alpomish dostonida qo`llanilgan o`xshatishlarni tahlil etishga harakat qilamiz. Avvalo, dostonlar tilida qo`llangan an`anaviy o`xshatishlarga to`xtalamiz. An`anaviy o`xshatishlar jonli so`zlashuv nutqida, shuningdek,

---

<sup>20</sup>Mahmudov N. O`zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. — Toshkent: O`qituvchi, 1984.



tilimizning leksik qatlamlarida ko'plab uchraydi. Lekin, shunisimuhimki, an'anaviyo'xshatishetaloni (timsoli) o'xshatishasosi (belgi) niifodalashdapoetikramzdarajasigako'tarilganbo'ladi. Dostonlarning epik qahramonlari nutqida yor, ya'ni go'zal ma'shuqaning yuzi (variantlari: jamol, husn) osmon jismlaridan oy (variantlari to'lin oy, o'n besh kunlik oy, o'n to'rt kunlik oy), o'simliklar (gul, lola) ga o'xshatilishi biz nazarda tutayotgan o'xshatishning eng faoli sanaladi. Ilmiy manbalarda *ayiqday qo'pol, qo'yday yuvosh, tulkiday ayyor, paxtaday oq, toshday qattiq, eshakday befarosat* singari bir qator o'xshatishlar xalqimizning badiiy tasavvuri, tashqi olamni baholash mezonlari va boshqa holatlarga ko'ra qadimdan shakllanib, ishlatib kelingani uchun an'anaviy o'xshatishlarga kirishi ta'kidlanadi. Bu haqda tilshunos M.Yo'ldoshev quyidagilarni yozadi: "...Ular o'zbek xalqining badiiy tasavvurlari, madaniy-tarixiy tajribalari, umuman, tashqi olamni baholash mezonlari mahsuli o'laroq ancha ilgari shakllanib, uzoq davrlar mobaynida ishlatilib kelinadi. Bu o'xshatishlar og'izdan og'izga, asrdan asrga o'tib kelayotgani uchun ham ularning o'xshatish etalonlari o'z orginalliklarini allaqachon yo'qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo'lib qolgan, an'anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib, ular an'anaviy o'xshatishlar deb qaraladi. An'anaviy o'xshatishlar ko'pishlatilaverib, o'z ohorini yo'qotgan, o'xshatish etalonlari tegishli tushunchalarining doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o'z obrazliligi, emotsional-eksprissivligini kamaytirgan bo'lishi tabiiy"<sup>21</sup>. Xalq epik asarlarida esa *yuz gul, lola va oyga; qosh kamonga, lab shakar va bolga, tish sadaf va durga* o'xshatilishiga ko'p guvoh bo'lamiz. Bunday o'xshatishlarni ham soha mutaxassislari an'anaviy o'xshatishlar qatoriga kirita-dilar. Bundan tashqari, xalq epik asarlari tilida *osmondagi oy, egilgan yoy, bo'z qarchig'ay, qaddi shamshod, bo'taday, oyday, sherday, yo'lbarsday, alifday, xazon urgan gulday, toyday, qo'yday* kabi o'xshatishlar ko'p qo'llaniladi va ular ham an'anaviy

---

<sup>21</sup>Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2002. -54-58-b.

o`xshatishlar qatorida sanaladi. “Alpomish” dostoni tilida ham bunday o`xshatishlar ko`p qo`llanganiga guvoh bo`ldik. Misollar: *Oq o`toving oyday bo`lib, / Asovliging toyday bo`lib, / Yuvoshliging qo`yday bo`lib, / Sanamlar, suv ber ichayin. / Suv beraman gulday bo`lib, / Badanarim qorday bo`lib, / Gulga qo`ngan hurga o`xshab, / Vafodor, mana, suv ichkin, // Muritining qaytishi / Isfahonning tig`iday, / Bo`riday bo`b tiklashi / Ajdarhonning ko`ziday (Alpomish).*

Bundan tashqari, xalq og`zaki poetik ijodi namunalarida mashuqaning yuzi oyga, qosh egilgan yoyga, ya`ni kamonga yoki uch kunlik oyga, qaddiqomat shamshodga, sarvga, bo`z qarchig`ayga; tish dur va gavharga yoki sadafga; yorning o`zi gulga, tovusga, bulbulga, jannatdagi hurga; ko`z yoshlari esa tabiat hodisalari sanalgan do`l va jalaga; epik qahramonlarning mardligi va shijoati yo`lbarsga, sherga o`xshatiladi. Bu singari o`xshatishlar ham an`anaviy o`xshatishlar sanalib, “Alpomish” dostoni tilida bu o`xshatishlarning aksariyat qismi qo`llanilgan. Misollar: *Osmonda sensan yorug`yulduzim, /Daryo bo`lsam. Suzadigan qunduzim (Alpomish). // Nozlanib bog`ingda o`sgan gulingdan, / Bir bedovni yaxshi ko`rding ulingdan (Alpomish).*

Xalq dostonlari tilida qo`llanilgan o`xshatishlar qatnashgan matnlarni kuzatgan tilshunoslarimizning yozishlaricha, *b`lib/ bo`b, ko`rib, qarab* va boshqa bir qator fe`llar o`xshatish ko`rsatkichlaridan keyin kelib, ish-harakatning jarayonini, holatini bildirishga xizmat qiladi. **Bo`lmoq** fe`lida epik qahramonning biror xatti-harakati yoki qiyofasini ko`z- ko`zlash ottenkasi mavjud. Masalan: *Ikki zulfak nurday bo`lib, / O`zing uchar hurday bo`lib. // Badanlaring qorday bo`lib. / Oq o`toving oyday bo`lib. // Asovliging toyday bo`lib, / Yuvoshliging qo`yday bo`lib. // Suv beraman gulday bo`lib, //Nozik belim qilday bo`lib (Alpomish).* *Yuqoridagi matnlardan ko`rinib turibdiki, o`xshatishko`rsatkichini qabul qilgan so`zdan so`ng bo`lib fe`li qatnashgan va ish-harakatning jarayonini, holatini bildirish uchun xizmat qilgan. Bu holatni bob, ko`rib, qarab, yashnab fe`llari qatnashgan matnlarda ham shu holatni kuzatish mumkin:* *Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo`ngan hurga o`xshab.*

// Har bir iyni qirday bo`b, / Ovsiragan sherday bo`b, / Yolg`iz o`zi ketib boradi,  
/ Bir bo`sayam mingday bo`b. // Ot bo`ladi bir yigitning yo`ldoshi, / Farzand  
bo`lar orqa tovi, beldoshi, / Yomon so`z yurakka o`qday so`qilar, / Yaxshi so`z  
bo`ladi gavharning boshi (Alpomish).

Tilda fe`l so`z turkumining tasviriy imkoniyatlari M.Sodiqovanning ishida tadqiq etilgan. Olima fe`lning tasviriy imkoniyatlari behad kuchliligini ta`kidlaydi<sup>22</sup>. Bu so`z turkumining tasviriy imkoniyatlari boshqa olimlarning ishlarida ham o`rganilgan. Masalan, A.I.Yefimov shunday yozadi: “fe`llarning tasviriy xususiyatlari qadim-qadimdan yozuvchilarning o`zini ham, badiiy asar tilini o`rganuvchi tadqiqotchilarni ham diqqat-e`tiborida bo`lib kelgan”<sup>23</sup>. Gap fe`l so`z turkumining matn tarkibidagi tasviriy imkoniyatlari haqida borar ekan, *o`xshamoq* fe`lidan iborat leksik-semantik birliklarning o`zini alohida ekanligini ta`kidlamoq lozim. Bu borada M.Yo`ldoshev quyidagilarni yozadi: “Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko`ra emas, balki butunicha, to`lasicha, aynan o`xshatilmogchi bo`lsa, o`xshatishasosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda o`xshatishning shakliy ko`rsatkichlari sifatida ham ko`pincha o`xshamoq fe`lidan foydalaniladi”<sup>1</sup>.

“Alpomish” dostonida *qo`llanilgan mana bu o`xshatishlar xalqonaligi, betakrorligi bilan alohida ajralib turadi*: Jamoling o`xshaydi osmonda oyga, / Qoshing kelishibdi egilgan yoyga, / Jasading o`xshaydi bo`z qarchig`ayga, Qarchig`ay changallim qaydan bo`lasan? // Jamoling mengzadim osmonda yoyga, / Qoshingni o`xshatdim egilgan yoyga. // Seni desam ko`nglim bo`shab, / Badan- larim qorday yashnab, / Gulga qo`ngan hurga o`xshab, / Vafodor, mana, suv ichgin (Alpomish). Ko`rinib turibdiki, o`xshatishasosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham o`xshatishasosi alohida bir so`z bilan ifodalanmagan, ayni paytda o`xshatishning shakliy ko`rsatkichi qo`shimchalar emas, balki *o`xshamoq*

---

<sup>22</sup>Sodiqova M. “Chiqmoq” fe`lining semantik-stilistik xususiyatlari // O`zbek tili va adabiyoti, 1989, -№2 (4). -60- 62- betlar.

<sup>23</sup>Yoqubbekova M. O`zbek xalq qo`shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. -113-bet.

fe`lidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlikning eng asosiy vazifasi o`xshatishning yaxlitligi, umumiyligini ta`kidlab o`tishdan iborat - dir. Bundan tashqari matnda *o`xshamoq* fe`lining *mengzamoq*, *kelishmoq* singari sinonimlari ham qo`llangan.

Tadqiqot davomida yana bir fikrni alohida ta`kidlash o`rinli deb bilamiz. *O`xshamoq* fe`lining leksik-semantik birliklari baxshi dostonlari tilida qo`llanishi ancha faol. Bu fe`l turli shakllarda qo`llanilgan. Jumladan, *o`xshatib*, *o`xshaydi*, *o`xshar*, *o`xshatgan*, *o`xshaysan* singari shakllar shular jumlasidandir.

“Alpomish” dostonida qo`llanilgan o`xshatishlarning aksariyatida o`xshatishasosi harakat-holatdan iborat, ya`ni fe`l turkumidagi so`zlar (ko`pincha, ularga bog`langan boshqa so`zlar bilan birgalikda) bilan ifodalanadi. Bunday bo`lishi tabiiy hol sanaladi. Chunki u yoki bu belgiga qaraganda, harakat-holatni ifodalash, ko`rsatish, butun o`ziga xosligi bilan tasvirlash murakkab. Albatta, bunda ham baxshi tomonidan tanlangan o`xshatishetalonining kutilmaganligi, yangiligi muhimdir. Fozil baxshining so`z san`atidan foydalanish mahorati shundan iboratki, ko`phollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o`xshatishetalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko`pincha sifatdosh yoki sifatdosh oboroti orqali ifodalangan va bu sifatdosh yoki sifatdosh oboroti bevosita o`xshatishetalonini ifodalaydigan bo`lakka aniqlovchi bo`lib keladi: *Bu so`zlarni eshitib, yigitlar nima deyarini bilmay, bilganlari ham gapini ayta olmay, bo`riday bo`lib jalanglab, to`shini yalang`ochlab, birdan urush qilmoqchi bo`lganday bo`lib turibdi. // Tovush tinganday bo`ldi, / Dushman ko`nganday bo`ldi, / O`ldimlashib jo`nadi, / Beklar yengganday bo`ldi. // Jo`nadi bedov hirkillab, / Abzali oyday yarqillab.../Ketayotir dirkillab, / Oqar suvday sharqillab, / Qimtanadi joni- vor, / Olqorday bo`b dirkillab (“Alpomish”) kabi.*

“Alpomish” dostonidagi o`xshatishlarning o`xshatishetalonlari (timsollari) sifatida turli harakat-holatdagi xilma-xil predmetlar tanlangan:

1. *O`xshatish etaloni sifatida epik qahramonning muayyan harakat yoki*

*holati olingan: Ikki zulfak nurday bo`lib, / O`zing uchar hurday bo`lib. // Ketayotir dirkillab / Oqar suvday sharqillab (Alpomish).*

2. *O`xshatishetaloni muayyan harakat yoki holatdagi hayvonlar, qushlar va hasharotlardan iborat: Asovliging toyday bo`lib, / Yuvoshliging qo`yday bo`lib. // Qushni ko`rib quvishing / Tulki quvgan toziday, / Abjillinging jonivor / Daryoning qunduziday. / Kelib qushni topishing / Yerga tushgan yashinday, / O`ljani obkeli- shing / Shahar olgan qulunday. / Olayib ovsirashing / Ko`zi yongan arslonday. // Har bir iyni qirday bo`b, / Ovsiragan sherday bo`b (Alpomish).*

3. *O`xshatishetaloni muayyan harakat yoki holatdagi daraxt, yaproq, olma, gul kabi o`simliklar dunyosiga oid narsalar: Suv beraman gulday bo`lib, / Nozik belim qilday bo`lib (Alpomish).*

4. *O`xshatishetaloni muayyan harakat yoki holatdagi boshqa turli narsalar:Badanlarim qorday yashnab, / Gulga qo`ngan hurga o`xshab. // Suv beraman gulday bo`lib, / Nozik belim qilday bo`lib (Alpomish).*

O`xshatishsubyekt (asos) dostonlar matnida ot, morfologik tabiatiga ko`ra, asosan, predmetlikni ifodalashga xizmat qiladi. Bu unsur (uzv) ot, otlashgan so`zlar, kishilik olmoshlari yoki shaxs va predmetlarni tavsiflovchi so`z birikmalari, ko`pincha otli va fe`lli birikmalar bilan ifodalanadi. O`xshatish subyekt (asos) ning leksik-semantik mazmuni baxshi dostonida xilma-xil ko`rinishlarga ega. Ular:

1. *Epik qahramon (obraz) shaxsini bildiradi: ota-ona, farzand, yor, ma`shuqa, oshiq kabilar.*

2. *Epik qahramon portretiga aloqador tana a`zolarini bildiradi: yuz, og`iz, tish, lab, soch, qo`l, qosh, xol kabilar.*

3. *Epik qahramonning xulq-atvori va xususiyatlarini bildiradi: yurishi, chiqishi, husni jamoli, kiprik qoqishi, ko`z suzishi kabilar.*

4. *Epik tasvirga jalb etilgan turli xil predmetlarni bildiradi: gullar, suv, saroy, qasr, ko`shk va boshqalar.*

O`xshatishetaloni doston matnida badiiy bo`yoqdorlik, obrazlilik, epik

tasvirda aniqlik tug`dirish uchun xizmat qiladi. Bu unsurda, asosan, otlar, otlashgan so`zlar, so`z birikmalari bilan ifodalanadi. Biz o`rganayotgan dostonlarda qo`llanilgan o`xshatishlardagi o`xshatishetalonining leksik-semantik mazmuni rang-barang. Bu unsur uchun quyidagi obyektlar tanlanganini ko`ramiz:

*Epik qahramonlarning shaxsiga nisbatan:* Farhod, Layli, Shirin, Majnun, sultonim, shohim va boshqalar.

1. *Jonivorlar nomi:* arslon, sher, yo`lbars, ot, kiyik, ilon, qoplon, qunduz, qobon, bo`ri, tulki, qunduz va boshqalar.

2. *Narsa va qurollar nomi:* yashin, qamchi, kamar, qilich va boshqalar.

3. *Qimmatbaho buyumlar:* po`lat, kumush, gavhar, marjon, zeb-ziynat, sadaf, dur va boshqalar.

4. *Qushlar:* qarchig`ay, to`rg`ay, bulbul, qirg`iy, burgut va boshqalar.

5. *Tabiat unsurlari:* suv, tog`, qor, bog`, gulzor, qir, tuproq, tepa va boshqalar.

O`xshatishning shakliy ko`rsatkichlari o`xshatishqurilmasidagi o`xshatishmunosabatini shakllantiruvchi leksik, grammatik, stilistik, semantik elementlar yig`indisidan tashkil topuvchi unsur sanaladi. "Alpomish" dostonida qo`llangan o`xshatishlarda bu unsur ikki xil birliklardan tashkil topgan:

a) morfologik vositalar;

b) morfologik-leksik vositalar.

Bu vositalar predmetni, uning belgisini, xususiyatlari, harakat va holatini o`xshatishda xizmat qiladi. O`xshatishning shakliy ko`rsatkichlari o`xshatishkonstruksiyasidagi yangi so`z hosil qilish, modallik, qo`shimcha ma`no ottenkasi berish, gap bo`lagi vazifasini bajarish kabi vazifalarni bajaradi.

Morfologik vositalarga *-day, -dayin, -dek, -dekkina, -din, -cha* affikslari hamda kabi, misli, xuddi, ham yordamchi so`zlarini kiritish mumkin.

*Morfologik-leksik vositalarga* *-ga* mengzar, *-day bo`b, -ga o`xshaydi, -ga o`xshar, -ga mengzaydi, -day bo`lib, -dek bo`lib, -cha bor, -larcha bor, bir ...dir, -ga ... mos kabilarni kiritish mumkin.*

O`zbektilida o`xshatishhodisasini ifodalashda *-day, -dek, -simon, -ona, -cha, -larcha, -din* kabi affiksalar vositalar mavjudligi e`tirof etiladi. Bu vositalar o`xshatishetaloniga qo`shilib, dostonlarda o`xshatishqurulmasini hosil qiladi.

“Alpomish” dostoni bo`yicha kuzatishlarimiz asosida shuni aytish mumkinki, yuqorida ko`rsatilgan vositalardan *-day* affiksi matn tarkibida o`xsha- tish munosabatini yuzaga chiqarishda eng sermahsul sanaladi. Bu vosita epik qahramonni biror narsaga, boshqa bir narsani yana boshqa bir narsaga, holatni harakatga, belgini biror narsa, holat, harakat yoki belgiga qiyoslash asosida o`xshatadi. “Alpomish” dostonidagio`xshatishlarning butun lisoniy - badiiy imkoniyatlarini to`liq ishga solingan, xalq tilining zargari va ulkan so`z san`atkor sifatida yaratgan o`xshatishlari kuchli obrazliligi, so`z san`atidan foydalanish mahorati o`zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

### 3.2. Dostondagi metaforalar va ularning leksik-semantik xususiyatlari

Tilshunoslikda “narsa-buyum, voqea va hodisalar o`rtasidagi o`zaro o`xshashlikka asoslangan ma`no ko`chishi” ga metafora deyiladi. Shuni ta`kidlash joizki, ko`chma ma`no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri metaforadir. Adabiyotshunoslikda metafora “istiora” atamasi bilan nomlanadi.

Metaforaga bag`ishlangan ishlarda uning ikki turi farqlanadi: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog`liq hodisa sifatida qaraladi. “Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo`yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi”<sup>24</sup> Faqatgina ma`lum bir so`zning ma`no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning qo`log`i - qozonning qulog`i, odamning ko`zi - uzukning ko`zi, ko`ylakning etagi - tog`ning etagi kabi.*

Xususiy-muallif metaforalari esa ijodkorning estetik maqsadi, ya`ni borliqni subyektiv munosabatini qo`shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo`yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo`ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg`ularini ta`sirchan, yorqin bo`yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi.

Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma`no mavjud bo`ladi. Bu haqda M.Mamadaliyevaning ishida quyidagi fikrlar bayon etilgan: “Metafora orqali ma`no ko`chishida konnotativ ma`no yorqinroq aks etadi. Masalan, *ot, eshak, qo`y, it, bo`ri, tulki, yo`lbars, boyo`g`li, musicha, burgut, lochin, qaldir- g`och, bulbul* kabi hayvon va qushlarning nomlari bo`lgan leksemalar mavjudki, bu so`zlar o`z ma`nosidan tashqari, ko`chma ma`noda juda keng qo`llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo`yning

<sup>24</sup> Mukarramov M. O`zbek tilida o`xshatishlar. — Toshkent, 1976. -B.13.



yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko`zi o`tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko,,chiriladi, natijada konnotativ ma`no yuzaga keladi hamda matnning ta`sirchanligi oshadi<sup>25</sup>.

Bizga ma`lumki metafora bilan o`xshatish konstruksiyaning o`zaro o`xshash va farqli tomonlari mavjud. Umuman olganda, metafora bilan o`xshatishni farqlash kerak. Bu haqida tilshunoslarimiz o`zlarining fikrlarini aytib o`tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o`tiladi:

1. O`xshatishda so`zlar o`z ma`nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so`zlar doimo ko`chma ma`noda bo`ladi.

2. O`xshatishda ikki komponent - o`xshatiluvchi obyekt va o`xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo`ladi.

3. O`xshatishlarda kengayish imkoniyati ko`p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so`z yoki so`z birikmasidan iborat bo`ladi.

4. O`xshatishda maxsus ko`rsatkichlar bo`ladi: *-dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o`xshamoq* va boshqalar. Metaforalarda bunday ko`rsatkichlar bo`lmaydi.

Buni quyidagi misoldan ham ko`rish mumkin: *Salim ayiqday beso`naqay odam*. O`xshatish konstruksiya. Bunda Salim – o`xshatish subyekti, ayiq- o`xshatish etaloni, beso`naqay – o`xshatish asosi, *-day* - o`xshatishning shakliy ko`rsatkichi. Bu to`liq o`xshatish. *Salim - ayiq*. Bu qisqargan o`xshatish, chunki gapda o`xshatishasosi (qaysi xususiyati o`xshashligi) va ko`rsatkichi ifodalanmagan. *Voy, ayiqi-yey...* (Salimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning beso`naqayligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti.

O`zbektilshunosligida metaforalar mazmuniy jihatdan quyidagi uch turga

---

25 Mamadaliyeva M. O`zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. — Filol. fan. nom. ...dis. — Toshkent. — B. 12.

ajratiladi: 1) odatiy metaforalar; 2) jonlantirish; 3) sinestetik metaforalar.

Xalq poetik ijodi namunalarida ma`no ko`chishning bu turidan qahramonlar tavsifini yaratishda, baxshi-shoirlarning o`z persanajlariga bo`lgan subyektiv munosabatini ifodalashda keng foydalaniladi. Poetik qahramon ijobiy xususiyatga ega bo`lsa, ularning ta`rif-tavsifini keltirishda qizlar uchun *yulduz, oy, qunduz, bahor, to`ti, qumri, tovus, oy* va boshqa bir qator leksemalar metaforik tarzda qo`llanilsa, yigitlar ta`rif-tavsifini berishda *sher, arslon, bo`ri, burgut, qarchig`ay, lochin* singari leksemalar ishlatilganini ko`ramiz.

“Alpomish” dostonida qo`llangan metaforalar badiiy tasvir vosita shaklda qo`llanganini ko`ramiz: *Chanqovuzni Barchin sarvinoz chaldi. // Chanqovuzni tovus chaldi, oy chaldi. // Chanqovuzni yulduz chaldi, noz chaldi, Chanqovuzni to`ti chaldi, gul chaldi, // Chanqovuzni bahor chaldi, par chaldi, // ular aytar jonon chaldi, yor chaldi (Alpomish)*. Keltirilgan misoldagi tovus, oy, yulduz, noz, to,,ti, gul, bahor, par, jonon, yor so`zlari metaforik ma`noga ega bo`lib, ularning bari dostonning poetik qahramoni Barchinni anglatadi, unga ishora qiladi. Ma`lumki, tovus, oy, yulduz, to`ti, gul, bahor, jonon, yor singari metaforik qo`llanishlar badiiy adabiyotda ham, xalq poetik ijodida ham juda qadimdan bor. Bunga manbalardan minglab misol keltirish mumkin.

Meni bilsang, qo`ng`irot elining to`rasi,  
Ko`kqamish ko`lidan suqsur uchirdim,  
Suqsurni uchurgan lochin bo`laman,  
Bog`larim zumratdan changalim po`lat,  
Boysindan quyilgan shunqor bo`laman.  
Boyligidan bedov otni boylagan,  
Tangqa tashlab Olatog`ni yoylagan,  
Kambag`ali qirq ming gala haydagan,  
Shul galada bizning bir moya kelgan,  
Moyaning yo`qchisi, nori bo`laman.

Ushbu parchada Alpomish nutqida metaforalardan unumli foydalanilgan. Ya`nikim Alpomish o`zi lochin va nor metafora asosida o`xshatib, yori

Oybarchinni esa suqsur va moyaga metafora asosida o`xshatilgan. Bunday metaforalar boshqa doston mantida juda kam uchraydi. Bu ham bo`lsa, “Alpomish” dostonidagi metaforalar kamyobligi, noan`anaviyligi bilan ifodalanadi.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida aytish mumkinki, “Alpomish” dostonida metaforik birliklar keng ishlatilgan bo`lib, baxshi shoir ko`proq xususiy-muallif metaforalardan foydalangani kuzatiladi. Umuman olganda doston tilida qo`llanilgan metaforalar xalq ijodi poetik tilining emotsionalligi va eksprissivligini ta`minlash uchun xizmat qilgan.

### **3.3. “Alpomish” dostonidagi mubolag`a va sifatlashlarning lingvokulturologik xususiyatlari**

“Alpomish” dostoni badiiy jihatdan ham xalqimiz og`zaki ijodidagi eng mukammal asarlardan biridir. Fozil Yo`ldosh o`g`li mohir va tajribali baxshi bo`lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosi, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta`riflaydi. Tomoshabin ko`z oldida jonli voqea tasvirini hosil etadi. Qahramonning xatti-harakatlarini dalillashga alohida e`tibor beradi, shuning uchun ham tinglovchi ko`nglida doston mazmuni bilan bog`liq yechilmagan jumboq qolmaydi. “Alpomish” dostoni mubolag`a, o`xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalarga juda boydir. Masalan, Alpomishning yoshligi bilan bog`liq mana bu lavhani olaylik: “Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o`n to`rt botmon birichdan bo`lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o`n to`rt botmon yoyini qo`liga ushlab ko`tarib tortdi, tortib, qo`yib yubordi. Yoyning o`qi yashinday bo`lib ketdi, Asqar tog`ining katta cho`qqilarini yulib o`tdi, ovozasi olamga ketdi”. Lug`atlarda og`irlik o`lchovi sifatida qayd etilgan “botmon” O`rta Osiyo xalqlari orasida 2 puddan 16 pudgacha vaznga ega ekani ko`rsatilgan. Agar har bir pud 16 kilogrammga teng ekanini nazarda tutsak, 14 botmon 224 kilogramm bo`ladi. 7 yoshli Hakimbekning turli metall ma`danlardan quyilgan (birichdan bo`lgan) shu qadar og`ir yoyini ko`tara olishi, unga mos o`q joylashi va o`qni otib, katta tog`ning cho`qqisini uchirib yuborishi tinglovchida hayrat uyg`otadi. Ammo tinglovchi mazkur voqeaning sodir bo`lganiga mutlaqo shubha bildirmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini ilohiy kuchlar bashorat qilgandilar, Shohimardon piring o`zi qalandar qiyofasida kelib, Boybo`rining yangi tug`ilgan o`g`liga Hakimbek deb nom qo`ygandi. Mubolag`ali o`rinlar Hakimbek, to`qson alplarning tog`dek gavdalari, Barchin, Qaldirg`ochning go`zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, otlarning poygasida juda o`rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o`xshatishlarni ham

uchratamiz: Oustingda bedoving halloslar qushday, Achchig`ing chillali muzlagan qishday. Bu satrlarda uzoq masofani bir zumda bosib o`tdigan Boychibor qushga, Alpomishning g`azabi butun atrofni muzlatib yuboradigan qishga o`xshatilyapti. Dostonda: Davlat qo`nlsa, bir chivinning boshiga,

*Semurg` qushlar salom berar qoshiga*

*Ot chopsa gumbirlar tog`ning darasi*

*Urushda bilinar mardning sarasi – kabi hikmatli so`lar tez-tez uchraydi.*

Ma`lum bo`ladiki, “Alpomish” dostonining o`ta qiziqarli voqealardan tashkil topgan mazmuni so`z san`atining go`zal badiiy vositalari bilan bezatilgan holda tinglovchiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham doston asrlar osha xalqimiz tomonidan sevib tinglanmoqda va o`qib kelinmoqda. Xalqimizning ko`plab iste`dodli xalq shoirlari otashin muhabbatni, Sof sevgini tarannum etuvchi xalq kitoblarini yaratgan. Xalhning maqsad intilishlari, sof muhabbat haqidagi talab-istaklari, qarashlari ifodalangan namunalar tildan tilga asrlar mobaynida ko`chib yurdi, el orasida keng tarqaldi. Ishqiy-romantik mavzudagi xalq kitoblari qahramonlari sevgilisi vasliga yetishish yo`lida o`limdan qaytmas, muhabbatni poymol qiluvchi shaxslarga beshafqat, mard insonlar sifatida tasvirlanadi. Bu kabi kitoblar syujeti uchun xarakterli bo`lgan xususiyatlardan biri shuki, bosh qahramon albatga husn-jamolda tengsiz bir qiz (pari) siymosini ko`zguda yoki sehrli uzukda ko`rib, oshiq bo`lib qoladi. Uni izlab topish iztirobi hech tinim bermagan, ota-ona noroziligiga qaramasdan o`z yurtidan chiqib ta`rif-tavsif etishga xizmat qiladi. “Ohu ko`z”, “nozik bel”, “qora zulf”, “oy yuz”, “pista dahan”, “daroz qad”, “olako`z”, “qirg`iy burun”, “qiyshiq kalla”, “supra quloq”, “bo`ri ko`z” singari ayrim qiyoslash asosida shakllangan epitetlarning qo`llanilishidayoq, xalqning tasvir qilinayotgan obrazga nisbatan ixlosi yoxud aksincha uni xushlamasligi sezilib turadi. Demak, sifatlashlar qahramonlar ichki olamini yoritishda, portretlar tasviridagana emas, balki ularga xalq munosabatini anglatishda ham muhim rol o`ynaydi. Xalqimizning ijodkorlik tabiatidagi yaxshilikni sharaflab, yomonlikni qoralash xususiyati xalq kitoblariga o`ziga xos rang va ohang baxsh etgan. U uzoq asrlik tajribasi, malakasi orqali dunyoning

tuzilishi ziddiyatli ekanini, u yovuzlik va ezgulik homiylarining beto'xtov kurashi asosiga qurilganini badiiy bo'yoqlar orqali yorqin tasvir etgan. Shoh bilan gado, och bilan to'q, feodal bilan dehqon, boy bilan faqir o'rtasidagi tengsizlikni, qarama-qarshiliklarning shohidi bo'lgan xalq hayotda bir-biriga zid manfaatlar mavjudligani ko'rdi. Ular orasidagi raqobatni aks ettirishga intildi. Ana shu maqsadni ifodalashga moyillik, tazod san'atining shakllanishi uchun omil bo'ldi deyishga haqlimiz. Chunki, har qanday nazariyaning ildizi zamini voqealikka borib taqaladi. Ma'no jihatidan bir-biriga zid bo'lgan so'zlarni keltirish orqali yasaladigan tazod san'ati ham keyinchalik turli g'oyaviy maqsadlarni ifodalash uchun xizmat qildirilgan. Ijodkor xalq yaxshilik va yomonlik kuchlarini o'ta quyuqlashtirib, bo'yoqli qilib tasvirlar ekan, ideal qahramonlarni har narsaning uddasidan chiqa oluvchi, har qanday mushkulotni bartaraf etuvchi shaxslar sifatida tasvirlar ekan, so'zsiz bunday paytlarda unga mubolag'a san'ati qo'l qiladi. Xalq odatda har qanday narsa va hodisani kuch, hajm, bo'y, og'irlik jihatidan vajohatli qilib tasvir etadi. Albatta, mubolag'a asosida xalqning o'z ideal qahramonlarini xayolan, fantastik tarzda aks ettirishlari zamirida mehnatkash omma manfaati, orzu umidi va maqsad intilishlari yotadi. Shu borada folklorshunos olimlarimizdan birining "xayol qushining oyog'iga haqiqat ipi bog'langan bo'ladi", -deyishi bejiz emas. Shomurti shoxalab har tomon ketgan Ichida sichqonlar bolalab ketgan Izdan tushgan pishak olti oyda yetgan O'z-o'zidan anglashiladiki, bu mubolag'ali tasvir salbiy tipning qisfasini jonlantirishga, ayni paytda devsiyat alplar bilan kurashga chiquvchi Hakimbekning kelbatini, salobatini, kuch-qudratini tasavvur qilishimizga imkon yaratgan. Mubolag'a san'ati obrazning jonli tasvirini ko'z oldimizda gavdalantirib, unga nafrat yoki muhabbatimizni qo'zg'ata aadi, fikrni lo'nda, obrazli ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Hamma buyuk asarlarda bo'lganidek, "Alpomish" dostonida ham tasvirda hayotiy detallar aniqligining saqlanishiga juda katta e'tibor berilgan va bunga to'liq erishilgan. Boychibor holatiga xos maishiy detallar tasvirida ham aniqlikka rioya etiladi. Holbuki, bunday murakkab yo'ldan bormaslik, tasvirda umumiy

ifodalarni keltirish bilan kifoyalanish mumkin edi. Chunki salgina oldin otga chiltanlar duosi bilan ilohiy sifat berilganligi aytilgandi. Tasvirdagi unchamuncha noaniqlik ana shu ilohiylik hisobiga “yuvilib” ketishi mumkin edi. Doston ijodkorlarining badiiy dahosi ularni bu oson yo`ldan yurishga qo`ymaydi va shu bois asrlar osha yashab qoladigan, minglab yillardan keyin ham odamlarga ta`sir o`tkaza oladigan asar yuzaga kelgan. Asarda go`yo gap eng oddiy ot haqida borayotganday. yetti yil mobaynida yorini intizorlik bilan kutgan Barchinning iztiroblari, ruhiyatida kechayotgan jarayonlar dostonda yuksak san`atkorlik bilan aks ettirilgan. «Alpomish» umrining boqiyiligini ta`minlagan omillardan asosiysi shundan iboratki, unda har bir personaj tabiatini aks ettirishda o`shanga eng muvofiq tasvir yo`sini topilgan. Shuning uchun ham Barchinning mulohazalari, iltijolari Qaldirg`ochnikidan farq qiladi. Dostonda ana shu o`zgachalik hamisha saqlab qolishga erishilganki, dunyo folklorida bu kabi hodisa siyrak uchraydi. “Qultoy”ning favqulodda jasoratini o`g`li Yodgordan eshitgan Barchinoy qulga emas, chinakam bek va alpga xos alomatni Farmonqul bakovulning xotiniga nisbatan yana-da yaqqolroq ko`radi: Qultoy bobong o`z kunini ko`rolmas,

*Qultoy bobong senga ilik berolmas*

*Qultoy bo`lib, bolam, otang kelgandi*

*Mung`ayganda ahvolingni ko`rgandi*

*Qultoy bo`lib to`yxonada yurgandi*

*Ko`rib senga mehribonlik qilgandi...*

Shunday qilib, Barchinoy hali Alpomishning o`zini emas, otining quyrug`ini ko`rib, birgina hatti-harakati haqida eshitib, aql-donish timsoliga munosib oqila ayol sifatida o`zgalarning aqli yetmagan tegishli mantiqiy xulosalar chiqara oladi. Shu o`rinda dostonning tasvir maromi, tahlil yo`sini va ifoda tarzi daf`atan o`zgarib, ular “to`ydagi qullarning yoyandozlik o`yini”ga ko`chadi. Xuddi Kashal yurtida Barchin alplar oldiga qo`ygan to`rt shartdan

biri kabi, bu yoyandozlik timsolining ham tagzamini terandir. Xususan, Qultoy qiyofasidagi Alpomishning nishonga urishga behuda urinayotgan qullarning yoylarini bir chekkadan sindirib chiqishi uning Qultoy emas, Hakimbek ekanini mantiqli fikrlay oladigan aqlli odamning ko`ziga ayon ko`rsatuvchi yana bir alomatdir. “Qultoy”ning bu ishiga hayron qolgan qullarning:

*Bobo, ishing qanday bo`lar,*

*Yoy tortuvni qaydan bilding?*

*Qancha yoylarni sindirding,*

*Sen kimlardan ta`lim olding?*

*Yoyandozlikni ne bilding?* qabilidagi savollariga javoban Hakimbek yana sir boy bermay o`zicha Qultoy bo`lib deydi, “Men sizlarga burungi kuchimni aytay, Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan, o`n to`rt botmon birichdan bo`lgan yoyi bor edi. Arpalining ko`lida yotib, Alpomish bilan ikkovimiz yoy tortishar edik... Alpomishning yoyining o`qidan mening yoyimning o`qi o`tar edi”. Odatda odam bolasi o`zi ko`zlagan murod-maqsad yo`lida ko`pdan-ko`p mashaqqatlar, iztiroblar, ikkillanishlarni boshidan kechiradi. Maqsad qanchalik ulug` bo`lsa, mashaqqat ham shunga yarasha bo`ladi. Ne-ne ulug` maqsadlar yo`liga kirgan ne-ne irodasi mustahkam yo`lchilar bu mashaqqatlarga tob berolmay, “yo`l azobi-go`r azobi”ga chidayolmay yarim yo`lda qolib ketmagan, ortiga qaytmagan, o`ngdanmi-chapdan yengilroq yo`llarni qidirishga tushmagan deysiz! Avvalo Oy Barchinni tutqunlikdan xalos etish, shu orqali qoq ikkiga bo`lingan elni qayta birlashtirishdek Ulug` Yo`lga kirgan Hakimbek... yo`l mashaqqatlariga chidarmi ekan? Qaldirg`ochoyim butun yo`l davomida unga yo`ldosh bo`lolmaydi, axir. Birga tug`ilmoq bor, birga yashamoq yo`q! Bu yo`lda yo`llaguvchi yo`ldosh, qo`llaguvchi qo`ldosh qani? “Ota-ona, qarindosh, hech kim bo`lmaydi yo`ldosh, Mardona bo`l, g`arib bosh, umring yeldek o`tar-o” Yolg`iz o`tiladigan yo`l bu Ulug` Yo`l! Hakimbek qalmoq yurtiga qadarlik sermashaqqat yo`lda do`sti sodiq qo`ldoshdek qo`llaguvchi ikki ilohiy kuchga



yuzma-yuz keladi. Avvaliga chiltanlar qoshida bir kecha tunaydi. Chiltanlar esa, Soohimardon pirning topshirig`iga ko`ra, “ilmi karomat bilan” Alpomish va Barchinning ruhlarini uchrashtirib - diydorlashtiradilar. Ana shundan keyin, qarabsizki, Hakimbek “Qadimgidan sertaraddud bo`lib, biyning qizini tushida ko`rib: “Oqquba kelgan, qizil chiroyli, xo`b barkamol, yaxshi qiz ekan”, - deb otlanib yotibdi”. Boshqacharoq aytganda, o`n to`rt yoshida xudoning qudrati, pir va chiltanlarning madadi bilan Hakimbekda bu olamdagi eng buyuk ilohiy tuyg`u - muhabbat uyg`onadi! Hakimbek endi o`z yo`lidagi ikkinchi muhim bosqichdan o`tib, bu gal chiltanlar huzurida emas, oddiy cho`ponning qo`shxonasida bir kecha tunaydi. Cho`ponning ismi Qayqubot, aniqrog`i, “Qayqibet” degan qadim turkiy so`zning birmuncha buzilgan shakli bo`lib, so`zning lug`aviy ma`nosi “beti qayiqsimon qayqi”, “basharasi qiyshiq” demakdir. “Basharang qiyshiq bo`lsa oynadan o`pkalama” deydi xalqimiz. Odatda odamning yuz-ko`zi qanday bo`lsa shundayligicha ko`zguda aks etganidek uning ko`ngli ham yuz-ko`zida baayni ko`zgudagidek ayon ko`rinib turadi. Zotan, yuz - oyna, ko`z - ko`zgudir.

Agar Hakimbek o`zining shahzodaligiga kibr-havo hosil qilib, takabburlikka berilib, “Endi kunim shu basharasi qiyshiqqa qoldimi!” qabilida o`ylab, izzat-nafsga berilganida yurar yo`li chappasiga ketishi ehtimol edi.

Lekin u oqko`ngil, yuragi toza, dili pok chin oshiq sifatida cho`pon qo`shxonasida bir kecha tunashni or deb bilmaydi va ayni shu joyda o`z fe`liga yarasha yana bir tush ko`radi. Bu tushida endi Barchin yorni emas, Haq Do`st - Rasuli Akram Muhammad alayhissalomni ko`radi.

Ummat rasulga o`z ko`nglidagi bir ishtibohni, jumladan, shunday izhor qiladi: “Hali ololmayman Barchin yorimni, Ko`rolmadim Soohimardon pirimni!”

Rasuli Akram Muhammad alayhissalom Hakimbekka aytgan “bir so`z” o`zini yorga nomunosib deb bilgan oshiqning shubha-gumondan xira tortgan ko`nglini oydek ravshan, quyoshdek charog`on qiladi:

*G`am yema, ummatim, - dedi payg`ambar,*

*- Ostida dulduli, belda zulfiqor*

*Jilovida Bobo Qambar jilovdor*

*G`amingda otlandi Shohimardon pirlar,*

*G`ayratingdan bo`zlab ketar qalmoqlar,*

*Hech kim bo`lmas sening bilan barobar,*

*Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor.*

Bu, endi Qaldirg`ochning da`vat-daldasi va yo Barchinning tushda ko`rilgan vasli emas, ko`ngilni to`ldirib to`q qilgan komil ishonch va sobit e`tiqod demakdir. Dostondagi Bodom cho`ri bilan Qultoy qiyofasidagi Alpomishning aytishuvi shunday bir dahanaki jangki, undagi har bir so`zda har ikki tomonning asli-nasli ko`zgudagidek ayon ko`rinib turadi. Aytishuvdagi dastlabki ikki to`rtlikni o`ziga xos kirish, oddiygina tilak-qutlov deb tushunaylik-da, diqqatni keyingi ikki to`rtlikka qarataylik.

Bodom bekach:

*Soyi-soyi seykalay qo`ydi boshlay, yor-yor,*

*Qalam qoshli yangalay o`lan boshlay, yor-yor,*

*Qiziq-qiziq aytinglay, qiz-kelinlay, yor-yor,*

*Qizib ketsa Ultonbek tanga tashlay, yor-yor.*

“Qultoy”:

*Sari ko`sam serkalar qo`yni boshlar, yor-yor,*

*Qalam qoshli yangalar o`lan boshlar, yor-yor.*

*Qiziq-qiziq ayt manglar, qiz-kelinlar, yor-yor,*

*Alpomishdan qolgan molni Ulton kimga tashlar, yor-yor.*

Dastlabki to`rtlikda “O`lan aytgin Ultonbek zamonida, yor-yor” deya qul o`g`lining zamonini dorilomon zamon sifatida ta`riflayotgan Bodom bekach bu o`rinda endi o`tirganlarni Ultonbekning sahovatidan umidvor qiladi. Avvaliga “Qariganda kelinli bo`laqopsan” deya piching qilsa-da, har qalay, “Qulluq bo`lsin, yangajon, to`ying, Bodom” deya to`yni go`yo olqishlagan “Qultoy” endi bironing moli xisobiga qilinadigan sahovat aslida sahovatemasligini dangal aytishga o`tadi. Bu achchiqqina haq gapi uchun, hattoki Alpomish nomini tilga olgani uchun boshqa paytda Ultontoz “Qultoy”ni o`limga hukm qilishi muqarrar edi, albatta.

Milliy ma`naviyatimiz rivojida muhim o`rin tutgan “Alpomish” dostonida qadim xalqimizning ishonch-e`tiqodlari, qadriyatlari va milliy ruhi to`la ma`noda aks etgan. Bu dostonni o`qib o`rganish, qadriyatlarimizni asrab-avaylash bilan birga xalqimiz ruhiyatiga singib ketgan sevgiga sodiqlik, otanaga hurmat, do`stga birodarlik tuyg`ularini shakllantiradi.

### **III bob xulosalari**

1. “Alpomish” dostonida qoʻllanilgan anʻanaviy oʻxshatishlarda ekspressivlik, oʻziga xos individuallik, yangilik boʻyogʻini bera olganligini taʻkidlab oʻtish joiz. Bu kabi oʻxshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida, dialektal qonuniyatlarga asoslangan holda, asrlar davomida xalq dostonlari tilini bezashda, epik tasvirning aniqligini va obrazlilikini taʻminlashda samarali xizmat qila olgan.
2. “Alpomish” dostonida shunday goʻzal oʻxshatishlar namunalari uchraydiki, ularda bir oʻxshatish subyekti uchun birdan ortiq oʻxshatish etaloni va oʻxshatish asosi tanlangani kuzatiladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan bir narsa-hodisa yoki harakat-holatga oʻxshatiladi. Oʻta ziyraklik va badiiy did bilan tanlangan bunday etalonlar tasvir obyektini bir necha jihatdan xarakterlash imkonini beradi. Bunda, albatta, tasvir toʻla, quyuk va taʻsirchan boʻladi. Bunday oʻxshatishlarda oʻxshatish etalonlarining koʻp boʻlishini, ularning bir-birlariga ustlanishlarini hisobga olib, ularni “qavatlangan oʻxshatishlar” deyish mumkin.
3. Dostonda metaforik birliklar keng ishlatilgan boʻlib, metaforalar xalq ijodi poetik tilining emotsionalligi va ekspressivligini taʻminlash uchun xizmat qilgan.

## UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek tilshunosligida badiiy asarlar yoki folklore namunalari tilini leksik-semantik, lingvostilistik va lingvopoetik, lingvokulturologik yo'nalishlarda tadqiq etishga bag'ishlangan, ulardan umum nazariy xulosalar chiqariladigan, ayni chog'da, jiddiy va keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar yaratilishi lozim. Bu esa tilshunoslarimiz oldiga katta vazifalarni yuklaydi.

2. "Alpomish" dostoni o'zbek xalqining eng qadimiy va milliyligini aks ettiruvchi durdona asar. Mustaqillik yillarida ushbu dostonga alohida e'tabor berildi va butun dunyoda ming yilligi keng nishonlandi.

3. Doston xalqning qadriyatlarini, mentalitetini, o'zligi va turmush tarzini butun dunyoga ko'rsatib beruvchi, ya'ni milliyligimizni aks ettiruvchi epik asar.

4. "Alpomish" dostonini o'ranish jaroyinida til va madaniyatni o'zaro bir-biriga uzviy bog'liqligini, ya'ni "Alpomish" dostonining tili madaniyatimizning yoritib beruvchi epik asar ekanligi turli usullar bilan tahlil qilindi.

5. Qadimiy epik an'analarni o'zida mujassam etgan dostonlar xalqimizning mifologik tasavvurlari, e'tiqodiy qarashlari, turmush tarzi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirganligi uchun yosh avlodga kuchli badiiy-estetik ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Ularni tadqiq va targ'ib qilish orqali millatimiz ma'naviyati va madaniyati tarixiga oid ko'pgina ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Shuning uchun dostonlarning o'ziga xos badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish xalqimiz badiiy tafakkurining qonuniyatlarini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

6. Dostonda metaforik birliklar keng ishlatilgan bo'lib, metaforalar xalq og'zaki ijodi badiiy tilining emotsionalligi va ekspressivligini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

7. "Alpomish" dostonida xalqimizning muayyan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy holati, xatti-harakatlari, rasm- rusmlari, urf-odatlarini, doston qahramonlari nomlari, voqealar kechgan joy nomlari o'z ifodasini topgan. Baxshi dostonni kuylar ekan, doston voqeligini, ya'ni epik syujetni bayon qilish jarayonida o'zbek tilining boy xazinasidan foydalanadi. "Alpomish" dostonida

qo`llanilgan o`zbek tili leksikasining turli mavzuviy guruhlariga kiruvchi so`z va boshqa til birliklaridan ma`lum bir maqsadda samarali foydalanilgan.

8. “Alpomish” dotoni tilida qo`llanilgan leksik birliklar quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratib o`rganildi: 1) inson va uning tana a`zolarini ifodalovchi leksemalar; 2) kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi leksemalar; 3) hayvonlar, jonivorlar va qushlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 4) qavm-qarindoshlikni ifodalovchi leksemalar; 5) ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni anglatuvchi so`zlar; 6) shaxs (epik qahramon) larni ifodalovchi nomlar; 7) kasb-hunar nomlarini bildiruvchi birliklar; 8) o`simlik va daraxtlar nomlarini bildiruvchi birliklar; 9) o`tovsozlikka oid nomlar; 10) o`rin-joyni ifodalovchi nomlar; 11) ot va uning abzallari nomini bildiruvchi leksemalar.

9. “Alpomish” dostonida onomastik birliklar ham keng qo`llanilgan bo`lib, ularning nomlarini alohida tadqiq etish ehtiyoji bor. Ishda onomastik qatlamga kiruvchi antroponimlar alohida tadqiq etildi. Ularning dostonlar tilida tutgan o`rni, qaysi til birligi ekanligi (geneologik qatlamlari), leksik-semantik xususiyatlari o`rganildi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.
2. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
4. Мирзиёев Ш. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz.– T.: O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishim kerak.– T.: O'zbekiston, 2017.

### **II. Darslik va o'quv qo'llanmalari:**

8. Adabiyot nazariyasi. (M.Nurmuhamedov tahriri ostida) Ikki tomlik. – Toshkent: 1978-1979.
9. Alpomish. (O'zbek xalq qahramonlik dostoni). – Sharq nashriyot matbaa konserni tahririyati. –Toshkent: 2010.398-bet
10. Yormatov I. O'zbek qahramonlik eposi badiiyati. –Toshkent: 1994.
11. Yormatov I. O'zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish”dostoni asosida). Toshkent, 1993.
- 12.Imomov. K. Alpomish dostonining ayrim xususiyatlari (Alpomish-

o`zbek xalq qahramonlik eposi to`plamida) –Toshkent: Fan, 1999.

13. Imomov K., T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent: O`qituvchi, 1990. 304-b.

14. Yo`ldoshev Q., V.Qodirov, J.Yo`ldoshbekov. Adabiyot (9-sinf uchun darslik) –Toshkent: Yangiyo`l polegraf serves nashriyoti, 2010.304-b.

15. Yo`ldoshev Q. Alpomish talqinlari. –Toshkent: Ma`naviyat, 2002. 168-b.

16. Madayev O. Alpomish bilan suhbat. –Toshkent: Ma`naviyat, 1999-yil.

17. Madayev O. Alpomish haqida suhbatlar. // [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

18. Madayev O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent: 2001. 256-b

19. Quronov S. Alpomish da konflikt masalasi. // [www.quronov-narod.uz](http://www.quronov-narod.uz)

20. Saidov M. O`zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. –Toshkent: Fan, 1969-yil

21. Sarimsoqov B. Alpomish klassik epos namunasi. // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 3-9-betlar

22. To`ychiboyev B. Alpomish dostoni va xalq tili // O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 22-26-betlar

23. To`ra Mirzayev. Doston gultoji (Alpomish dostoniga so`zboshi) –Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010.

24. Hodi Zaripov Alpomish eposining asosiy motivlari (Alpomish – o`zbek xalq qahramonlik eposi to`plamida) –Toshkent: Fan, 1999.

25. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So`z estetikasi. –Toshkent: O`qituvchi, 1981.

26. Adabiyot nazariyasi. 2 tomli. 1-tom. Adabiy asar. –Toshkent: Fan, 1978.

27. Doniyorov X., Yo`ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. –Toshkent: Fan, 1980. – 159 b.



28. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari: Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
29. Yo`ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. – Samarqand, 1982. – 81 b.
30. Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
31. Yo`ldoshev M. Cho`lpon so`zining sirlari. –Toshkent: Ma`naviyat, 2002.
32. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: Fan, 1990. – 111 b.
33. Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari – Toshkent, 2000. -160 b.
34. Shomaqsudov A. va boshq. O`zbektili stilistikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. - 248 b.
35. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. – Toshkent: Fan, 1982.
36. Qo`ng`urov R. O`zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: O`qituvchi, 1977.
37. Qo`chqortoyev I. Badiiy so`z ustasi. – Toshkent: Fan, 1967
38. Mukarramov M. O`zbek tilida o`xshatishlar. –Toshkent, 1976.
39. To`ychiboyev B. “Alpomish” va xalq tili. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 2001. – 160 b.
40. Mahmudov N. O`zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. – Toshkent: O`qituvchi, 1984.
41. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy vositalari. – Samarqand; 1990. 89
18. Karimov S. O`zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: 1992

### **III. Dissertatsiya va avtoreferatlar:**

42. Saparniyazova M. O`zbekxalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: 2005. – 24 b. 91
42. Yormatov I. O`zbek xalq qahramonlik eposi poetikasi. Filol. fan. dokt... diss. avtoref. – Toshkent, 1994.

43. Yoqubbekova M. O`zbek xalq qo`shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fan. dokt... diss.- Toshkent, 2005.

44. Yo`ldoshev M. Cho`lponning badiiy til mahorati. ("Kecha va kunduz" romani asosida): Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. - 25 b.

45. Mamadaliyeva M. O`zbektilida nominativ birliklarning konnatativ aspekti. –Filol. fan. nom. ...dis. –Toshkent.

46. Mahmadiyev Sh. O`zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2007. – 26 b.

47. Rahimov A.S. O`zbek xalq dostonlari lekiskasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o`g`li ijodi misolida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. –Samarqand, 2002. – 26 b.

48. Xalikov A.A. "o`ro`g`lining tug`ilishi dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2009. -24 b.

49. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка Лисон ат-тайр Алишера Навои: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1982.

50. Xolmonova Z. Shayboniyxon dostoni leksikasi (Po,,lkan shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 27 b.

51. Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

52. Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы Равшан: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949.

#### **IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va ilmiy to`plam tezislari:**

54. Abdurahmonov D., Bektemirov X. O`zbek xalq dostonlari onomastikasi // O`zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1964. –B.186-191.

55. Doniyorov X. Qipchoq shevalarining o`rganilishida xalq dostonlarining roli // O`zbek xalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1967. –B.162-166.

56. Ishayev A. Dostonlar tilining ba`zi xususiyatlari // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o`rni. – Toshkent: Fan, 1971. –B.173-179.

57. Ishayev A. Xalq dostonlari leksikasidan // O`zbekxalq ijodi. –Toshkent: Fan, 1967. –B.167-177.

58. Mahmudov N. Alpomish dostoni lingvopoetikasiga chizgilar // O`zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.. To`plam. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPI, 2010. –B. 12-18.

59. Oxunov N. Farg`ona viloyati oykonimlarini o`rganishga doir // Onomastika. Ilmiy maqolalar to`plami. 1-chiqishi. – Samarqand, 2013. -15-17 – b. 92

60. Tursunov S. Alpomish dostoni leksikasini o`rganishga doir // O`zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1085. -№3 –B.36-38.

61. Tursunov S. Alpomish dostoni tilidagi antraponimlar // Antraponimika muammolariga bag`ishlangan regional yig`ilish doklidlari tezislari to`plami. – Jizzax, 1985. -58-60-b.

62. Tursunov S. Alpomish dostonida sinonimlar // Jizzax DPI professor-o`qituvchilarining ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Jizzax, 1988. –B. 101-102.

63. Hayitova F.B. Nikoh to`yi qo`shiqlarining lisoniy talqini: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 1998. - 26 b.

#### **V. Lug`atlar:**

64. Begmatov E.A. O`zbek ismlari ma`nosi: (Izohli lug.,at). –Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998. – 586 bet.

65. O`zbek tilining izohli lug`ati. Besh jildli. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild., 2006.

66. O`zbektilining izohli lug`ati. Besh jildli. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 2-jild, 2006.

67. O`zbektilining izohli lug`ati. Besh jildli. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 3-jild, 2007.

68. O`zbektilining izohli lug`ati. Besh jildli. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 4-jild, 2008.

69. O`zbektilining izohli lug`ati. Besh jildli. – Toshkent: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti. 5-jild, 2008.

**VI. Elektron resurs manbalari:**

1. [www.n.b.g.t.intal.uz](http://www.n.b.g.t.intal.uz).
2. [www//ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
3. <http://feb-veb.ru/feb/izvest/1940/03/403-089htm>
4. [file://localhost/C:Documents%20and%20Settings/..](file://localhost/C:Documents%20and%20Settings/)